

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

FOTONIKANING ZAMONAVIY MASALALARI

2024

Saidov Q.S.

fizika-matematika fanlari
nomzodi, dotsent..



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“FOTONIKANING ZAMONAVIY MASALALARI”

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Fizika

Buxoro-2024

Modulning o`quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagi 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi va o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Q.S.Saidov** fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: **D.R.Djurayev** fizika-matematika fanlari doktori, professor.
M.R.Jumayev fizika-matematika fanlari doktori, professor.

**O`quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2023 yil "28" dekabrdagi 5-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MATERIALLAR	20
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	77
V. GLOSSARIY	134
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	147

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim myassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim myassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim myassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim myassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni fotonikaning zamonaviy masalalari bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ushbu dasturda fotonikaning tarixi, Lazer fizikasi va fotonika asoslari, fotonika usullari va asosiy yoʻnalishlari, bir jinsli muhit oʻtikasi, kvant chigallik, kvant teleportatsiya, nanofotonika zamonaviy usullari va asosiy yoʻnalishlari, myammolari bayon etilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Fotonikaning zamonaviy masalalari modulining maqsad va vazifalari:

- sohadagi ilgʻor tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni oʻzlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Fizika**” yoʻnalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, koʻnikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- oʻquv jarayonini tashkil etish va uning sifatini taʼminlash borasidagi zamonaviy yondashuvlarni oʻzlashtirish;

“**Fizika**” yoʻnalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan oʻzaro integratsiyasini taʼminlash.

Modul yakunida tinglovchilarning bilim, koʻnikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining “Fotonikaning zamonaviy masalalari” oʻquv moduli boʻyicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, koʻnikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega boʻlishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- fotonika tarixini;
- lazer fizikasi va fotonika asoslarini;
- fotonika usullari va asosiy yoʻnalishlarini;
- optika, spektroskopiya, fotonikani;
- nurdiod, lazerli diodlarni;
- kvant teleportasiyani;

- kvant interferensiyani
- optik giroskoplarni
- kremniyli fotonika, Nanoskopiya, Nanofotonikalarni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- spektroskopik usullarni tahlil etish va baholash;
- nurlanish manbalaridan foudalanish;
- optik nurtolali datchiklarni ishlashini tahlil etish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- fotonlarni qabul qilish;
- optik nurtolali aloqa tizimlarinidan amaliyotda foudalanish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- fotonikaning zamonaviy masalalarini o'zlashtirish;
- fotonni teleportasiya qilishga mo'ljallangan eksperimental qurilmalardan foudalanish;
- kvant interneti va kvant kompyuterlarini qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modul hajmi

“Fotonikaning zamonaviy masalalari” jami 18 soatni – 8 soat nazariy hamda 10 soat amaliy mashg'ulotni tashkil etadi. Malaka oshirishning bevosita shaklida uchinchi haftadagi o'quv yuklamasining hajmi - 10 soatni, to'rtinchi haftada esa - 8 soatni tashkil etadi.

“FOTONIKANING ZAMONAVIY MASALALARI” O‘QUV

MODULINING MAZMUNI

Fotonika tarixi. Lazer fizikasi va fotonika asoslari. Fotonika usullari va asosiy yo'nalishlari. Nurlanish manbalari. Nurdiod. Lazerli diod. Fotonlarni qabul qilish. Bir jinsli muhit optikasi. Optik nurtolalar. Optik nurtolali aloqa tizimlari. Optik nurtolali datchiklar. Optik giroskoplar. Kvant chigallik. Kvant teleportatsiya.

Kvant interferensiya. Fotonni teleportatsiya qilishga mo'ljallangan eksperimental qurilmalar. Kvant interneti va kvant kompyuterlari. Kremniyli fotonika. Nanoskopiya. Nanofotonika. Bir fotonli nurlanish manbalari

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Umumiy soat	Jami ayditoriya soati	Jumladan		
				nazariy	amaliy	ko'chma mashg'ulot
1.	Fotonika tarixi. Lazer fizikasi va fotonika asoslari. Fotonika usullari va asosiy yo'nalishlari. Nurlanish manbalari. Nurdiod. Lazerli diod. Fotonlarni qabul qilish.	2	2	2		
2.	Bir jinsli bo'lmagan muhit optikasi. Optik nurtolalar. Optik nurtolali aloqa tizimlari. Optik nurtolali datchiklar. Optik giroskoplari.	2	2	2		
3.	Kvant chigallik. Kvant teleportatsiya. Kvant interferensiya. Fotonni teleportatsiya qilishga mo'ljallangan eksperimental qurilmalar. Kvant interneti va kvant kompyuterlari.	2	2	2		
4.	Kremniyli fotonika. Nanoskopiya. Nanofotonika. Bir fotonli nurlanish manbalari.	2	2	2		
5.	Nurlanish manbalari. fotoelementlar. nurdiod.	2	2		2	
6.	Lazerli diod. fotonlarni qabul qilish	2	2		2	
7.	Optik nurtolali aloqa tizimlari. optik nurtolali datchiklar. optik giroskoplari	2	2		2	
8.	Kremniyli fotonika. nanoskopiya	2	2		2	
9.	Nanofotonika. Bir fotonli nurlanish manbalari	2	2		2	
Jami		18	18	8	10	

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keuslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foidalanish tavsiya etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foidalaniladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI.

1. Ta’lim vositalarining klassifikatsiyasi.

Ijtimoiy voqelik ta’limni boshqarish muammolarini ko‘rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo‘nalish sifatida ajratib olish, ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratini belgilab berdi. Uning o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o‘rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot aloqalari, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatini oshirdi.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy ustuvor yo‘nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta’lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta’lim boshqaruvini demokratlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog‘lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo‘lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Kishilik tarixida 1-bosqich uzoq muddat davom etgan. Unda o‘qituvchi o‘z kuchiga, o‘z bilim va mahoratiga asoslanib ish bajargan. Keyinchalik dunyoviy va diniy mazmundagi qo‘lyozma kitoblar yaratildi, lekin o‘quvchi ularning mazmunini o‘qituvchi faoliyati vositasida o‘zlashtiradi.

2-bosqich darsliklar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasi mukammal rivojlanmagan, lekin o‘qitishning 1,2,3-bosqichlariga xos ta’lim vositalari maktablarga jadal kirib bormoqda.

O‘quv adabiyotlarini joriy etish qarama-qarshiliklar ko‘rashi natijasida sodir bo‘lgan. Keyingi davrlarda ham ta’lim sohasidagi jiddiy o‘zgarishlar oson kechmagan. Bugungi kunda ham 1-bosqich texnologiyasi ruhida shakllangan ayrim

pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o'quv vositalarini o'zlashtirib olishga, ta'lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust darajada. 1-bosqich o'quv vositalari o'qituvchidan ko'p mehnat talab etadi va o'quvchining bilim, tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lmaydi. Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta'lim metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o'qituvchi mehnatining samarasi ortib, zamonaviy texnologiyani qo'llaydiganlar safi kengaya borgan.

Ta'lim vositalari oltita turga bo'linadi:

- 1. Matnli vositalar.**
- 2. Tasvirli vositalar.**
- 3. Audio vizual vositalar.**
- 4. Yordamchi (jixoz) vositalar.**
- 5. Modelli vositalar.**
- 6. Real vositalar.**

•**Matnli vositalar**-O'qituvchi va o'quvchilar uchun: o'quv predmetini o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanmalar, shaxsiy metodika, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiqiy strukturalar, fan darsliklari, mavzu yuzasidan kelib chiqqan holda tarixiy badiiy adabiyotlar, fan bo'yicha ma'ruzalar matni.

•**Tasvirli vositalar**- o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (videoproektor, Vidiofilmlar, rasmlar, haykallar, portret).

•**Audio vizual vositalar**-Matnga ovoz berish, Lingafon vositalari, radio eshittirishlaridan foydalanish, stenogramma matreallari, turli xildagi disklar va hakoza.

•**Yordamchi (jixoz) vositalar**- Grafoproektor, Doska-bloknot, Doska-stend, Flipchart, va boshqalar).

•**Modelli vositalar**- grafiklar, chizmalar, sxema, xaritalar



•**Real vositalar**- tarix darslarida muzey eksponatlari, maket va mulyajlar, arxeologik matreallar, tarixiy obektlar.

2. Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar, grafik organayzerlar.

Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar: maqsadni belgilash; o'quv axborot mazmuni; ta'lim vositalari; yetakchi bilim manbai; o'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

Grafikli organayzerlar texnikasi

1-ilova.



Кластер

КЛАСТЕР

(Кластер-тутам, боғлам)-ахборот харитасини тузиш йўли- барча тузилманинг моҳиятини марказлаштириш ва аниқлаш учун қандайдир бирор асосий омил атрофида ғояларни йиғиш.

Билимларни фаоллаштиришни тезлаштиради, фикрлаш жараёнига мавзу бўйича янги ўзаро боғланишли тасаввурларни эркин ва очик жалб қилишга ёрдам беради.

Кластерни тузиш қоидаси билан танишадилар. Ёзув тахтаси ёки катта қоғоз варагининг ўртасига асосий сўз ёки 1-2 сўздан иборат бўлган мавзу номи ёзилади

Бирикма бўйича асосий сўз билан унинг ёнида мавзу билан боғлиқ сўз ва тақлифлар кичик доирачалар “йўлдошлар” ёзиб қўшилади. Уларни “асосий” сўз билан чизиклар ёрдамида бирлаштирилади. Бу “йўлдошларда” “кичик йўлдошлар” бўлиши мумкин. Ёзув ажратилган вақт давомида ёки ғоялар тугагунча давом этиши мумкин.

Муҳокама учун кластерлар билан алмашинадилар.

5

4-ilova

Кластерни тузиш қоидаси

1. Ақлингизга нима келса, барчасини ёзинг. Ғоялари сифатини муҳокама қилманг фақат уларни ёзинг.
2. Хатни тўхтатадиган имло хатоларига ва бошқа омилларга эътибор берманг.
3. Ажратилган вақт тугагунча ёзишни тўхтатманг. Агарда ақлингизда ғоялар келиши бирдан тўхтаса, у ҳолда қачонки янги ғоялар келмагунча қоғозга расм чизиб турунг.

7

ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

Тоифа-хусусият ва муносабатларни муҳимлигини намоён қилувчи (умумий) аломат.

Ажратилган аломатлар асосида олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди.

Тизимли фикрлаш, маълумотларни тузилмага келтириш, тизимлаштириш кўникмаларини ривожлантиради.

Тоифали шарҳлашни тузиш қондаси билан танишадилар. Ақлий ҳужум / кластер тузиш/ янги ўқув материали билан танишишдан сўнг, кичик гуруҳларда, олинган маълумот лавҳаларини бирлаштириш имконини берадиган тоифаларни излайдилар.

Тоифаларни жадвал кўринишида расмийлаштирадилар. Ҳолатларни / маълумотларни тоифага мос равишда бўладилар. Иш жараёнида тоифаларнинг айрим номлари ўзгариши мумкин. Янгилари пайдо бўлиши мумкин.

Иш натижаларининг тақдироти

6-ilova

Тоифалаш шарҳини тузиш қондаси

1. Тоифалар бўйича маълумотларни тақсимлашнинг ягона усули мавжуд эмас.
2. Битта мини - гуруҳда тоифаларга ажратиш бошқа гуруҳда ажратилган тоифалардан фарқ қилиши мумкин.
3. Таълим олувчиларга олдиндан тайёрлаб қўйилган тоифаларни бериш мумкин эмас бу уларнинг мустақил танлови бўла қолсин.

9

7-ilova

ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

График ташкил этувчининг тури, аҳамияти ва хусусиятлари

Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришнинг жараёни тузилмаси

“ИНСЕРТ” жадвали
Мустақил ўқиш вақтида олган маълумотларни, эшитган маърузаларни тизимлаштиришни таъминлайди; олинган маълумотни тасдиқлаш, аниқлаш, четга чиқиш, кузатиш. Аввал ўзлаштирган маълумотларни боғлаш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради

Инсерт жадвалини тўлдириш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида ўзлари тўлдирадилар

Ўқиш жараёнида олинган маълумотларни алоҳида ўзлари тизимлаштирадилар - жадвал устунларига “киритадилар” матнда белгиланган қуйидаги белгиларга мувофиқ:
“V” - мен билган маълумотларга мос;
“-“ - мен билган маълумотларга зид;
“+” - мен учун янги маълумот;
“?” - мен учун тушунарсиз ёки маълумотни аниқлаш, тўлдириш талаб этилади

8-ilova

Инсерт

- V - биламан
- (-) - тўғри келмади
- (+) - янги ахборот
- (?) - тушунмадим

V	+	-	?

9-ilova

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ-
 Биламан/ Билишни
 хоҳлайман/ Билиб олдим.
 Мавзу, матн, бўлим
 бўйича изланувчиликни
 олиб бориш имконини
 беради.
 Тизимли фикрлаш,
 тузилмага келтириш,
 таҳлил қилиш
 кўникмаларини
 ривожлантиради.

Жадвални тузиш қоидаси билан
 танишадилар. Алоҳида /кичик
 гуруҳларда жадвални
 расмийлаштирадилар.

“Мавзу бўйича нималарни биласиз” ва
 “Нимани билишни хоҳлайсиз” деган
 саволларга жавоб берадилар (олдиндаги
 иш учун йўналтирувчи асос яратилади).
 Жадвалнинг 1 ва 2 бўлимларини
 тўлдирадилар.

Маърузани тинглайдилар, мустақил
 ўқийдилар.

Мустақил/кичик гуруҳларда
 жадвалнинг 3 бўлимни
 тўлдирадилар

10-ilova

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

Биламан	Билишни хоҳлайман	Билиб олдим

16

11-ilova

T – жадвал

T – жадвал
- бита концепция
(маълумот)нинг жиҳати
ўзаро солиштириш ёки
уларни (ҳа/йўқ, ҳа/қарши)
учун.
Танқидий мушоҳада
ривожлантиради

T – жадвал қоидалари танишилади.
Якка тартибда расмийлаштирилади

Ажратилган вақт оралиғида тартибда
(жуфтликда) тўлдиради, унинг чап
томонига сабаблари ёзилади, ўнг
томонига эса чап томонда ифода
қарама – қарши ғоялар, омиллар ва
шу кабилар.

Жадваллар жуфтликда (гурӯҳда)
таққосланиши тўлдирилиши

Барча ўқув гурӯҳи ягона T – тузади.

T- ЖАДВАЛ «Тест назорати» Ютуғи Камчилиги

- | Ютуғи | Камчилиги |
|--|--|
| <ul style="list-style-type: none">• Ватқни тежалиши• Фронтал ҳолда иш олиб бориш имкони• Мантқий фикрни ривожлантириш.• Баҳолаш қулай | <ul style="list-style-type: none">• Нутқнинг ривожланмаслиги.• Мулоқотнинг йўқлиги.• Ҳамкорликда фаолиятнинг йўқлиги.• Педагогик муносабатнинг йўқлиги. |

ВЕНН ДИАГРАММАСИ

ВЕНН ДИАГРАММАСИ

- 2 ва 3 жиҳатларни ҳамда умумий томонларини солиштириш ёки таққослаш ёки қарама-қарши қўйиш учун қўлланилади.
Тизимли фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш қўникмаларини ривожлантиради.

Венн диаграммасини тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида кичик гуруҳларда Венн диаграммасини тузадилар ва кесишмайдиган жойларни (х) тўлдирадилар

Жуфтликларга бирлашадилар, ўзларининг диаграммаларини таққослайдилар ва тўлдирадилар

Доираларни кесишувчи жойида, икки-уч доиралар учун умумий бўлган, маълумотлар рўйхатини тузади.

«Венн» диаграммаси

- 2 объектни, тушунчани, ғояни, ҳодисани таққослаш фаолиятини ташкил этиш жараёнида ишлатилади.

“Нима учун” схемаси

“Нима учун” схемаси-
муаммонинг дастлабки сабабларини аниқлаш бўйича фикрлар занжири.
Тизимли, ижодий, таҳлилий фикрлашни ривожлантиради ва фаоллаштиради.

“Нима учун” схемасини тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гуруҳларда муаммони ифодалайдилар. “Нима учун” сўроғини берадилар ва чизадилар, шу саволга жавоб ёзадилар. Бу жараён муаммонинг дастлабки сабаби аниқланмагунича давом этади.

Кичик гуруҳларга бирлашадилар, таққослайдилар, ўзларининг чизмларини тўлдирадилар. Умумий чизмага келтирадилар.

Иш натижаларининг тақдимоти

«Қандай» технологияси

- Муаммони қандай ҳал этиш мумкин эканлиги муҳокама қилинади
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu. FOTONIKA TARIXI. LAZER FIZIKASI VA FOTONIKA ASOSLARI. FOTONIKA USULLARI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI. NURLANISH MANBALARI. NURDIOD. LAZERLI DIOD. FOTONLARNI QABUL QILISH.

Reja:

1. Modul maqsadi va vazifalari
2. Fotonika tarixi.
3. Lazer fizikasi va fotonika asoslari.
4. Fotonika usullari va asosiy yo‘nalishlari.
5. Nurlanish manbalari.
6. Nurdiod. Lazerli diod.
7. Fotonlarni qabul qilish.

Tayanch iboralar: *Fotonika, fotonik kristallar, lazer, nurlanish manbalari, nurdiod, lazerli diod, fotonlarni qabul qilish.*

Fotonika, informatsiyani qayta ishlash, saqlash va uzatishda optik va elektr metodlarini qo‘llash masalalarini qamrab olgan, elektronikaning yo‘nalishi hisoblanadi. Optoelektronika, radioelektronika va hisoblash texnikasining rivojlanish bosqichida yuzaga kelgan bo‘lib, ularning tendentsiyasi sistemaning informatsion va texno-iqtisodiy ko‘rsatkichlari (ishonchliligi, o‘chamlari va og‘irligining kamayishi, tezkorligi) ortishida uni uzluksiz murakkablashtirishdan iborat.

Umuman aytganda fotonika xalq xo‘jaligining va fanning ikki – elektronika va optika sohalarining yutuqlarini bir-biriga birlashtirishidan vujudga kelgan fan hisoblanadi. Fotonikaning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

"Fotonikaning zamonaviy masalalari" modulning maqsadi – ma'lumotlarni uzatuvchi, qayta ishlovchi, qabul qiluvchi va akslantiruvchi optoelektron qurilmalarning fizik asoslarini o‘rganishdan iborat.

vazifasi – tinglovchilarni nurlanish manbalari, optronlar, optik va elektron-optik, elektrooptik va magnitoptik qurilmalarda ma'lumotlarni almashtirishlarning uslublari, o'zgartirishlarni, optik sistemalarining parametrlari, optik nurlanish xarakteristikalari, qayta qiluvchi va o'lchov-hisoblash sistemasida olib boriladigan keuingi qayta ishlovlar bilan tanishtirish.

Optik nurlarni axborotni qayta ishlash va uzatish uchun foudalanish g'oyasi 50-yillarda yuzaga keldi. Ammo shu davrdagi elektr va optik signallarni o'zaro bir-biriga aylantirish vositalari va optik signalni amalda foudalanish va uning tezligi bilan bog'liq vositalarni ixcham qilib yaratish imkoni bo'lmagan. Bu imkoniyat 60-yillarda lazer nuri va yorug'lik diodlari yaratilgandan keyin yuzaga keldi. 1966-68 yillarda yarim o'tkazgichli va suyuq kristalli indikatorlar, 1969-yili ko'p elementli foto qabul qilgichning asosiy tipi-zaryadli bog'lanishga asoslangan kremniyli ekranli asboblari, 1966-67 yillarda optik eslab qoluvchi qurilmalar yaratildi. Tolali optika tarmog'i yaratish g'oyasi 1966-yili paydo bo'lgan bo'lsa, u 1970-yilda amalga oshirildi. 1970-yilda integral optika yaratilgandan keuin optik elementlar va qurilmalarni o'ta ixchamlashtirish boshlandi. 1984- yildan sanoat miqyosida diskret optik saqlagichlar ishlab chiqarila boshlandi.

Fotonika asosan kvant elektronikasi, yarim o'tkazgichlar elektronikasi, qattiq jism fizikasi va optikadagi fundamental muvaffaqiyatlar tufayli yuzaga keldi. Optik spektrning oralig'i deganda to'lqin uzunligi 1 mm dan 1 nm gacha bo'lgan elektromagnit to'lqinlar olinadi. Radiotexnikaning rivojlanishi shunga olib keldiki, bu sohaning uzun to'lqin chegarasi (0,1 - 1 mm) submillimetr radioto'lqinlarga, qisqa to'lqin soxasi (1 - 10 nm) yumshoq rentgen nurlanishga qarashli deb hisoblanadi. Optik sohaning nurlantirgich va fotoqabulqilgichlar bilan amalda egallagan sohasi optoelektronika uchun foudalanadigan sohani yanada qisqartirishga olib keladi. Amalda optoelektronikada 0,2-50 mkm to'lqin sohasi haqida fikr yuritiladi. Bu hol tasodifiy emas. Energiya kattaligi bo'uicha bu diapazon (0,02-5 ev) taqiqlangan zona kengligiga to'g'ri keladiki, bu nurlanish kvantlari yarim o'tkazgichning faqat valent elektronlarini (xususiy aralashmali) ionlashtirishga

uetarli bo`ladi. Haqiqatdan ham keng zonali yarim o`tkazgichlardan ruh sulfid va karbit kremniyning taqiqlangan zonasi kengligi 3-3,5 ev atrofida, germaniy va kremniydagi donor va aktseptorlarninig ionizatsiyasi 0,01ev atrofida. Yuqorida ko`rsatilgan nurlanishlardan ham kichik to`lqin uzunlikdagi foudalanish atomning ichki qobiqlarining yug`onishiga olib kelgan bo`lar edi, yoki nurlanishning modda bilan boshqa ta`sirlashuv mexanizmini yug`otgan bo`lar edi.

Kichik energiyali kvantlardan foudalanish (uzun to`lqin sohasi) esa bu uzunlikdagi to`lqin sohasining atomlarni o`ug`onishiga uetarli bo`lmaydi. Ular faqat eksiton va foton generatsiyasiga olib kelish mumkin. Shunga binoan optoelektron sohada foudalanilayotgan nurlanishlar, chapdan ham o`ngdan ham modda bilan ta`sirlashuvi boshqacha bo`lgan mexanizmlarga tegishli va priborlar ham boshqacha bo`ladi. Shunga binoan optoelektronika sohasidan foudalanishning effektiv bo`lgan nurlanishi 0,2-50 mkm. Ammo zamonaviy optoelektron asboblarda va qurilmalarda asosan 0,5-1,5 mkm sohadagi nurlanishlar ishlatiladi.

Bu asboblarda va qurilmalarning ishlashi har xil ko`rinishdagi lyuministsentsiyalar (elektro-, katodo-, fotolyuministsentsiya) dan foudalanishga, elektr, magnito-, va akustikooptik hodisalardan (masalan: Kerr, Pokkels, Faradeu, akustooptik difraktsiya) foudalanishdan iborat. Bu sohada har xil fotoelektrik hodisalar (masalan, fotoelektrik effekt), optik nurlanishning izotrop va anizotrop muhitlarda tarqalish qonuniyatlari (masalan tolali va integral optik yorug`lik o`tkazgichlar), har xil noxiziq optik hodisalardan foudalaniladi.

Vakuum yoki yarim o`tkazgichli elektronikadan optoelektronikaning ustunligi shundan iboratki, bu asbob va qurilmalar axborotni uzatish, saqlash, qayta ishlash va aks ettirishda optik nurlanishlardan foudalaniladi.

Optik nurlanish kvantlari, fotonlar elektr jihatdan neutral bo`lib yuqori chastotadagi yorug`lik tebranishlaridan iborat - 10¹⁵ gerts gacha. Optik nurlanish to`lqiniga asosan 1 mm gacha, va yorug`lik nurlari kichik sochilishga (~1`) ega va uni yuqori darajada fokuslash mumkin.

Fotonlarning elektrik neutral bo'lishi optik elektr tarmoqlarini elektr maydon ta'siriga berilmasligi (shovqinlardan himoya qilinganlik, o'zaro kesishgan to'siqlarni va h. k.) ichki optik aloqali optik elektron qurilmalarda to'liq galvanik bo'shash va ochilish, optik nurlanish oqimini ikkilangan modulyatsiyasi (fazo va vaqt bo'uicha) bir vaqtning o'zida juda katta axborot ko'lamini qayta ishlashga imkon beradi.

Yorug'lik to'liklarining katta chastotaga ega bo'lishi optik aloqa kanallarining juda katta axborot sig'imiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Optik nurlanishning juda kichik to'lqin uzunligiga ega bo'lishi axborotni juda katta optik zichligida yozishga olib keladi. Yorug'lik nurlarning juda kichik sochilishi va uni fokuslash optik energiyasini fazoning kerakli sohasiga juda kichik yo'qotish bilan uetkazib berish imkonini beradi. Shu sababli fotonikada kogerent nurlanishlardan foudalanish ko'pgina hollarda bu asboblar va qurilmalarning funksional imkoniyatlarini oshiradi.

Lazer fizikasi va fotonika asoslari. Fotonika usullari va asosiy yo'nalishlari.

Uzoq tarixdan ma'lumki, bizning ongimizdan tashqarida yashayotgan ob'ektiv borliq, ya'ni materiya atomlardan tashkil topgan. O'sha davrdan atomga materiyaning bo'linmas eng kichik zarrasi deb qaralgan edi. SHuning uchun ham atom grekcha «atomos» so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas» degan ma'noni anglatadi.

Atomning tuzilishi haqidagi birinchi atom modelini 1904 yilda ingliz olimi J.J.Tomson (1856-1940) yaratdi. Bu modelga binoan atom shar shaklida bo'lib, uning butun hajmida zaryadlar bir tekis taqsimlangan. SHu musbat zaryadlar orasida elektronlar ham joulashgan bo'lib, ularning soni musbat zaryadlar soniga teng bo'gani uchun atom neutral hisoblanadi. Elektron muvozanat vaziyatidan siljiganda uni muvozzant vaziyatiga qaytaruvchi elastik kuchga o'xshash kuch hosil bo'ladi. SHu kuch ta'sirida elektron garmoni k tebranma harakat qiladi. Maksvell elektromagnit to'lqin nazariyasiga asosan elektron atomda tebranma harakat qilgani uchun atom monoxromatik elektromagnit to'lqin sochadi.

Bu elektromagnit to'liqin chastotasi elektronning tebranish chastotasiga to'g'ri keladi. Tomson shu atom modeli bilan atomning nurlanish spektri chiziqli bo'lishini tushuntirib berdi. G.N.Lorents, Tomsonning bu atom modeli asosida yorug'lik dispersiyasining elektron nazariyasini yaratdi. Bu nazariya normal va anomal dispersiyalarini tushuntirib berdi. O'z vaqtida Tomson modeli fizikada muhim rol o'ynaydi. Ammo bu model uzoq yashamadi.

Ingliz olimi Rezerfordning radioaktiv moddalardan chiquvchi α -zarrachalarini yupqa metal qatlamidan o'tganda sochilishini o'rganib, 1911 yilda atom tuzilishining yangi modelini yaratdi. Rezerford atom tuzilishini quyidagicha faraz qildi: *atomning nihoyat kichik sohasida musbat zaryad joulashgan, uning atrofidagi atomning barcha sohasi esa manfiy zaryadli elektronlar bulutidan iborat bo'lib, bu elektronlarning to'liq zaryadi musbat zaryadga miqdoran teng.*

Rezerford yuqoridagi tajriba natijalari asosida atomning yadro modelini yaratdi. Bu modelga binoan atom markazida musbat zaryadlangan yadro («mag'iz» degan ma'noni anglatadi) joulashgan. Yadro bilan elektronlar o'zaro ta'sirlashishi natijasida elektronlar yadro atrofida aylana shaklidagi orbitalar bo'ylab aylanma harakat qiladilar. Yadro kuchlari maydoni markazga intilma kuch vazifasini bajaradi. Yadro atrofida aylanayotgan elektron uchun Nyutonning III qonuni quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\frac{e^2}{4\pi\epsilon_0 r^2} = \frac{m_e v^2}{r}$$

bu yerda v – elektronning orbitadagi tezligi, m_e – elektronning massasi, e – elektron zaryadi, r – orbita radiysi, $\epsilon_0 = 8,85 \cdot 10^{-12} F/m$ – elektr doimiy. Elektronlarning umumiy zaryadi, yadrodagi musbat zaryadlarning umumiy zaryadiga teng bo'lgani uchun atom elektr zaryadiga ega emas.

Rezerford tajribaga va atom yadro modeliga asoslanib atom zaryadini va o'lchamini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Yadroning zaryadi elektron zaryadiga karrali bo'lib,

$$q = +Ze$$

ekanligi aniqlandi. Bu yerda Z – elementning Mendeleev davriy sistemasidagi tartib raqami. Rezerford ana shu narsaga aniqlik kiritadiki, elementning davriy sistemadagi o'rnini Mendeleev ko'rsatganidek, uning atom massasi bilan emas, balki yadro zaryadi bilan aniqlanadi. Rezerford ayrim elementlarning davriy sistemadagi o'rniga tuzatishlar kiritdi, ya'ni ularning tartib raqamlarini o'zgartiradi. Rezerford tadqiqotlari yadro o'lchami ($10^{-13}sm$) ni aniqlashga imkon berdi.

Ammo atom tuzilishi to'g'risidagi Rezerford modeli klassik fizika qonunlari doirasida joulashmaydi. Bu model yadro atrofida aylanayotgan elektronning orbitasi nima sababdan turg'un ekanligiga ham javob bera olmaydi. Atom sochilayotgan yorug'lik spektri ham uzluksiz bo'lmay, balki chiziqlidir. Daniyalik fizik Niels Bor M.Plankning kvant energiyasi haqidagi ta'limotini va tajribada kuzatilgan vodorod atomi spektral seriyalarini o'rganib, atom tuzilishining yangi nazariyasini yaratdi.

Atomning energetik holatlarining diskretligi to'g'risidagi tasavvurga tayanib, N.Bor 1913 yilda Rezerfordning atom modeliga o'sha vaqtda tajribada kuzatilgan vodorod atomi spektri va nurlanish kvanti tushunchalarini mohirlik bilan umumlashtirib, atomning yangi nazariyasini yaratdi. Bor o'zining atom nazariyasiga isbotsiz qabul qilinuvchi uch postulatni asos qilib oldi. Bu postulatlar quyidagicha ta'riflanadi.

I postulat. Atom uetarlicha uzoq vaqt turg'un holatlarda bo'lishi mumkin, bu holatlardagi atom energiyasining qiymatlari $W_1, W_2, W_3, \dots, W_n$ diskret qatorni tashkil etadi. Atom ana shu turg'un holatlarini birida bo'lishi mumkin xolos. Atomning turg'un holatiga elektronning turg'un orbitalarda aylanishi mos keladi. Elektronlar turg'un orbitalarda aylanganda atom yorug'lik sochmaydi va yutmaydi.

II postulat. Atomdagi elektron ixtiyoriy orbitalar bo'ylab aylanmasdan impul's momenti Plank doimiysiga karrali bo'lgan orbitalar bo'ylab aylanadilar:

$$L_n = m_e v r_n = n \hbar$$

bu yerda $n = 1, 2, 3, \dots$, qiymatlarni oladi va elektronorbitasining tartib raqamini bildiradi, $r_n - n$ -orbita radiysi, $\hbar = h/2\pi = 1,055 \cdot 10^{-34} \text{J}\cdot\text{s}$.

III postulat. Atom energiyasi W_n bo'lgan bir turg'un holatdan energiyasi W_m bo'lgan ikkinchi turg'un holatga o'tganda energiyaning bitta kvanti chiqariladi yoki yutiladi. Bu kvantning chastotasi quyidagi

$$\omega = \frac{W_n - W_m}{\hbar}$$

munosabat bilan aniqlanadi. $W_m < W_n$ shart bajarilsa, kvant nurlantiriladi, $W_m > W_n$ bo'lganda esa kvant yutiladi.

Elektron yuqori orbitadan qyui orbitaga tushsa, atom yorug'lik kvanti sochadi. Elektron qyui orbitadan yuqori orbitaga chiqishi uchun esa tashqaridan yorug'lik kvanti yutadi.

Lazer ishlashining asosiy printsiplari. Yorug'lik moddaga tushganda unda kuchayishi uchun sistemani muvozanatli bo'lmagan holatini amalga oshirish kerak. Bunday xolatda yug'ongan atomlarning soni yug'onmagan, turg'un xolatdagi atomlar sonidan ko'p bo'lishi kerak. Mana shunday sistemada majburiy nurlanish ko'chkisimon tarzda kuchayadi.

Modda qatlamidan yorug'lik o'tganda uningi intensivligining o'zgarishini ko'ramiz. ω chastotali yorug'lik to'lqini, qandaydir kvant o'tish rezonans bo'lgan, dz qalinlikdagi modda qatlamiga tushayotgan bo'lsin. Bunda bu to'lqin intensivligi I va yorug'likning spektral zichligi u bir-biri bilan bog'langan:

$$I = cu\Delta\omega,$$

bu yerda $\Delta\omega$ - spektr kengligi, c - yorug'lik tezligi. Muhitda yorug'lik esa eksponentsial qonun asosida o'zgaradi, bunda eksponenta belgisi $N_2 - N_1$ ga bog'liq bo'ladi:

$$I(z) = I_0 \exp(Gz).$$

bu yerda $B = B_{12} = B_{21}$,

$$G = B(N_2 - N_1) \frac{\hbar\omega}{c\Delta\omega},$$

G - yutish koeffitsienti. Bu koeffitsient klassik yutish $\delta(\omega)$ koeffitsienti bilan quyidagicha bog'lanadi:


$$G = \left(\frac{N_2 - N_1}{N} \right) \delta(\omega).$$

Klassik modeldan farqli ravishda kvant model muhitda *yorug'likning eksponentsial kuchayishini* ko'rsatadi. Buning uchun, ifodalarga binoan, yuqori ishchi sathning to'ldirilganligi pastki sath to'ldirilganligidan katta bo'lishi kerak:

$$N_2 > N_1,$$

ya'ni *to'ldirilganliklar inversiyasi* vujudga keladi. Mana shu effekt lazerlarda ishlatiladi. Bu har xil yo'llar bilan vujudga keltiriladi.

Lazerda kuchaytirish rejimidan generatsiya rejimiga o'tish uchun teskari bog'lanishni ishlatadilar. Bu esa *optik rezonator* yordamida amalga oshiriladi. Lazer ishlashi uchun uning ishchi moddasidagi ko'p atomlarni *metastabil holatlar* deb ataladigan bir xil yug'ongan holatlarga o'tkazish kerakki, bunday holatda atom nisbatan uzoq vaqt (10^{-8} sek dan ko'proq) bo'lsin. Buning uchun ishchi moddaga maxsus manbadan uetarlicha elektromagnit energiyasi beriladi. SHundan so'ng lazerning ishchi moddasida barcha yug'ongan atomlar normal holatga deyarli bir xil vaqtda *majburiy* o'tish boshlanadi. Bu o'tishlarda deyarli bir vaqtda chastotalari va fazalari bir xil, hamda bir xil yo'nalishda lazer o'qi bo'yicha harakatlanadigan ko'plab yorug'lik kvantlari $h\nu$ birga chiqadi. Bu fotonlar oqimi lazerdan chiqadigan monoxromatik yorug'likning kuchli ingichka dastasini hosil qiladi.




1-rasm.

Ayrim moddalarning atomlarida shunday qo'zg'algan, lekin nisbatan turg'un holatlar borki, atomlar bu holatda ancha uzoq vaqt ($10^{-2} \div 10^{-3} s$) bo'la oladi. Bunday holatlar *metastabil holatlar* deyiladi. Atomlarida metastabil holatlari bo'lgan moddalarga tarkibida 0,005 % xrom (Cr) bo'lgan

yoqut kristalli (Al_2O_3) misol bo'ladi, ularda alyuminiy atomlarining bir qismini metastabil holatlari bo'lgan xrom ionlari egallagan. Yoqut kristalli yorug'lik bilan

yoritilganda xrom ionlari qo'zg'aladi va W_1 satxdan W_3 energetik sathga mos keluvchi holatga o'tadi.



Xrom atomlari qo'zg'algan W_3 holatda qisqa vaqt ($\sim 10^{-8}s$) bo'lgandan keuin W_2 energiyali metastabil holatga o'tadi. W_3 sathdan W_2 sathga o'tishda nurlanish sochilmaydi, bu o'tishda ajralgan energiya kristall panjaraga beriladi, natijada kristallning temperaturasi ko'tariladi. Yoqut kristalli ma'lum vaqt kuchli yoritilsa, xrom ionlarining W_2 mestastabil sathda elektronlarning juda zich «joulashuvi» yuz beradi. Agar yoqut sterjenga asoslaridan biri orqali uni o'qi yo'nalishida kuchsiz yorug'lik dastasi tushsa, energiyasi xrom ionining metastabil va asosiy holatlari energiyalari ayirmasi $W_2 - W_1$ ga teng bo'lgan fotonlar, bu ionlarning W_2 holatdan W_1 holatga o'tishlarini va energiyasi

$\hbar\omega = W_2 - W_1$ bo'lgan fotonlarning nurlanishini yuzaga keltiradi. Fotonlar soni ikki marta ortadi. Soni ikki marta ortgan bir xildagi fotonlar yoqut sterjenn' ichida harakatlanib, xromning yangi ionlari nurlanishini yuzaga keltiradi. Bunda fotonlar soni yana 2 marta ortadi. Bu jarayon uzuluksiz davom etadi. Fotonlar soni shiddat bilan ko'chkisimon ortib boradi .

Lazerning o'ziyug'otilish sharti *fazaviy shart* deyiladi:

$$L = n \frac{\lambda}{2}, \quad n=1, 2, 3, \dots$$

Bu shart bajarilganda yorug'lik nurining rezonatorni ikki marta o'tganda fazaviy yugurishi 2π ga karrali bo'ladi. Ushbu formula lazer generatsiyasi quyidagicha aniqlanadigan diskret chastotalarda bo'lib o'tishini ko'rsatadi:

$$\nu_n = n\Delta\nu, \quad n=1, 2, 3, \dots$$

Bu chastotalar rezonator L uzunligiga bog'liq va ular *rezonatorning hususiy modalari* deyiladi.

Yug'otilgan hususiy modalar M soni moda oraligi intervali va lazer kuchayishi spektral polosasi kengligi $\Delta\nu_{\kappa}$ nisbatiga bog'liq:

$$M = \frac{\Delta\nu_{\kappa}}{\Delta\nu}.$$

SHunday qilib yoqut kristallidan unga kirgan yorug'likka kogorent bo'lgan va kuchaygan yorug'lik dastasi chiqadi. 1955 yilda rus olimlari N.G.Basov, A.I. Proxorov, ulardan behabar holda amerikalik fizik CH.Tayns yuqorida bayon etilgan shartlar bajariladigan usullarni qo'llab *mazer* deb ataladigan qurilmalarni ixtiro qiladilar. Ularning bu ixtirolari uchun 1964 yilda Nobel mukofoti berilgan. SHundan keuin tez orada yoqut kristalli asosida monoxromatik qizil yorug'lik sochuvchi ($\lambda=0,6443 \text{ mkm}$) lazer qurilmasi ham yaratildi.

Lazer tuzilishining asosiy printsiplari. «Lazer» so'zi bu qurilmaning ishlash printsiptini aks ettiruvchi jarayonning inglizcha so'zlarining bosh xarflaridan tashkil topgan: «*Light Amplification bu Stimulated Emission of Radiation*» - «Yorug'lik nurlanishining majburiy chiqarilish hisobiga kuchaytirilishi». Lazerlardan oldin *mazerlar* yaratilgan. Lazerlar ko'zga ko'rinadigan, infraqizil yoki ultrabinafsha nurlanishlar chiqarsa, mazerlar o'ta yuqori chastotali (O'YuCH) elektromagnit to'lqinlar sohasida ishlaydi. «Mazer» so'zidagi «M» harfi ingliz tilidagi mikroto'lqin (Microwave) so'zining birinchi harfidan olingan, qolgan harflar lazer so'ziniki bilan bir xil.

Yoqut tsilindr (sterjen) shaklida olingan bo'lib, uning asoslari yuqori darajada silliqlangan.

Yoqut sterjenni bir asosi kumush bilan to'liq qoplangan bo'lib, u yorug'likni to'la qaytaradi, ikkinchi asosiga kumush yarim shaffof qilib qoplangan. Bu kumush qatlamlari rezonator vazifasini bajaradi. Yoqut sterjenni spiralsimon gazli lyuminestsent lampa o'rab olgan. Yoqut sterjenni spiralsimon gazli lyuminestsent lampa o'rab olgan. Yoqut kristalli o'qi bilan katta burchak hosil qilib paydo bo'lgan fotonlar sterjenp asoslaridan ko'p marta qaytadi, natijada fotonlarning kuchli oqimi xosil bo'lib, u qisman shaffof asosdan tashqariga chiqadi. SHundan

so'ng qurilmaga tashqi manbadan qayta energiya beriladi va yana lazer nurlanishi olinadi.

Lazer nuri *qyuidagi asosiy xususiyatlarga* ega:

1. Lazer nuri fazo va vaqt bo'yicha kogerentdir. Kogerentlik vaqti – $10^{-3}s$ bo'lib, u 10^5m kogerentlik uzunligiga to'g'ri keladi. Bu uzunlik oddiy kogerent manbalarinikidan 10^7 marta katta.

2. Lazer nuri qat'iy monoxromatlikka ega ($\Delta\lambda < 10^{-11}m$).

3. Lazer nuri katta nurlanish quvvatiga ega. Masalan, yoqut kristali asosidagi lazerdan $10^{-3}s$ davomida $20J$ energiya olinsa, bunda nurlanish quvvati

$$\Phi_e = W/t = 20J/10^{-3}s = 2 \cdot 10^4 Vt.$$

bo'ladi. Agar bu lazer nurini $1mm$ yuzaga fokuslasak,

$$\omega = \frac{\Phi_e}{S} = 2 \cdot 10^4 Vt / 10^{-6} m^2 = 2 \cdot 10^{10} Vt/m^2$$

quvvat zichligi olinadi. Lazer nuri kichik burchakli sochilishga ega. Masalan, Ouga fokuslangan lazer nuri $3 km$ diametrli jouni yoritadi. Projektor nuri fokuslanganda edi, u $40000 km$ diametrli jouni yoritar edi.


Lazerlarning foudali ish koeffitsienti (f.i.k.) $0,01\%$ dan ($He = Ne$ lazeri) 75% gacha (neodimli shisha asosidagi lazerda) uetadi. Lekin ko'pchilik lazerlarning f.i.k. $0,1 \div 1\%$ atrofida, CO_2 gazi asosida uzluksiz holda infraqizil nurlanish ($10,6 mkm$) beradigan quvvatli lazerlarning f.i.k. 30% va undan yuqori.

Lazerlarning ishlatilishi. Hozirgi vaqtda lazer nurlari ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. Lazer nurlaridan foudalanib o'ta kattik moddalarga (olmos va boshqalarga) ishlov berish mumkin. Lazer nurlari mahsulotlardagi defektlarni aniqlashda, uzoq masofalardagi radioaloqada, kichik hajmlarda juda yuqori temperatura xosil qilishda, meditsinada juda nozik xirurgik operatsiyalarini bajarishda (masalan, ko'z jarrohligida) qo'llanilmoqda.

Lazerlar yordamida olingan nurlar yuqori darajada kogerent, dastasi esa nihoyatda ingichka bo'lganligi uchun ular fan va texnikaning turli sohalarida: uzoq masofalardagi radioaloqada, kichik hajmlarda juda yuqori temperaturali plazma xosil qilinib, u o'rganilmokda. Ma'lumki, yuqori temperaturali plazmani o'rganish

boshqariluvchi termoyadro reaksiyasini amalga oshirish bilan bog'liqdir. Lazer nuri yordamida predmetning hajmli tasvirini hosil qilish va bu hajmli tasvirni maxsus usulda yozib olish mumkin. Bu soha *golografiya* deb ataladi. Lazer turlari, ishlash printsipti va xarakteristikallari bilan «Kvant elektronikasi» kursida tanishtirib o'tiladi.


Optik tasvirning vujudga kelishi. Abbe nazariyasi. Abbe-Porter tajribasi



XIX asrning 70-yillarida Ernst Abbe mikroskop ob'ektivining aperturasi qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi aniqlashtirish berishini qayd qildi. Bu hodisa na'munadagi yorug'lik difraktsiyasi tufayli kelib chiqishini

tajribaviy yo'l bilan Abbe tomonidan ko'rsatildi. To'lqin nazariyasini Abbe instrumental optikaga olib kirdi.

Optik tasvirning linza orqali vujudga kelishi Abbe nazariyasiga binoan ikki etapga bo'linadi: ob'ektning to'lqin maydonining Fur'ye-analizi va tasvirning




Fur'ye-sintezi. Bunda fokal tekislik juda muhim rol o'ynaydi. Unda manba maydonning Fur'ye obraziga proporsional bo'lgan maydonning taqsimlanishi

vujudga keladi. Abbe bo'yicha tasvirning vujudga kelishi 3-rasmda ko'rsatilgan. Panjaradan o'tgan yorug'lik diskret burchak spektrga ega bo'lganligi sabab, har bir spektral komponentning yo'lini kuzatish mumkin. Bunda linza to'lqin maydonini Fur'ye analiz qiladi, bu linza bilan uning fokal tekisligi orasida amalga oshadi. Erkin difraktsiyaning ikkinchi etapida tasvirning Fur'ye sintezi amalga oshadi, u fokal tekislik va tasvir orasida amalga oshadi.

Abbe-Porter tajribasi. Eksperiment sxemasi 4-rasmda ko'rsatilgan. Ingichka simlardan qilingan to'rga kogerent yorug'lik tushayapti deulik. To'r orqali o'tgan

yorug'lik linzaga tushadi. U to'ring tasvirini ekranda hosil qiladi. To'ring strukturasi davriy bo'lganligini sababli, uning Furʼe-spektri dog'lar sistemasi ko'rinishida bo'ladi. Bunda alohidagi dog'ning o'lchami to'r o'lchami bilan aniqlanadi.

Golografiya. Yorug'lik maydonini yozish va qayta tiklash




Odatdagi fotoplyonka yoki fotoplastinkaga yorug'lik maydoni haqidagi axborotning qismi qayd qilinadi, ya'ni yorug'lik intensivligining fazoviy taqsimoti qayd qilinadi. Bu yerda optika uchun muhim bo'lgan maydon fazasining fazoviy taqsimoti

to'g'risida axborot oddiy surat olishda yo'qotiladi. Bunday amplituda va faza to'g'risidagi axborotni yozish usuli mavjud va *ugolografiya* nomini oldi.

Golografiya g'oyasi juda oddiy bo'lib, unda ob'ektdan kelayotgan yorug'lik maydonining o'zi emas, balki kogerent tayanch to'lqin bilan bu maydonning interferentsiyasini fotografiyalash hisoblanadi. Fotoplastinkaga yozilgan byuum va tayanch to'lqin interferentsiyasi *gologramma* deyiladi. Interferentsiya manzarasining ko'rinishi nafaqat amplitudaga, balki fazaga ham bog'liqligi sababli, gologrammada predmet to'lqini haqidagi barcha axborot - maydonning amplitudasi ham, fazasi ham yozilgan bo'ladi.


Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, golografiya uchun yorug'lik kogerentligi muhim ro'ly o'ynaganligi sababli, gologrammani yozish lazerlar paydo bo'lgandan keuin rivojlandi. Agar golografiya g'oyasi D.Gabor tomonidan 1948 yilda aytilgan



bo'lsa, birinchi gologramma 1964 yilda E.Leut va Yu.Upatnieks tomonidan yozildi.

Golografiyada yorug'lik maydonini yozish 5-rasmda, qayta

tiklash 6-rasmda ko'rsatilgan. Golografiyani olish uchun lazer dastasi ikkita – «signal» va «tayanch» dastalarga bo'linadi. Ob'ektdan qaytgan "ob'ekt" dastasi ham fotoplastinkaga yo'naltiriladi va u tayanch to'lqin bilan interferentsiyalanadi. Ob'ekt tomonidan chiqarilgan yorug'lik maydonini qayta tiklash uchun gologramma «tayanch» dasta bilan yorug'lantiriladi. Dasta bunda gologrammada difraktsiyalanadi va difraktsiyalangan to'lqinlar paydo bo'ladilar, ularning bittasi ob'ekt to'lqinli o'zining strukturasi bo'yicha takrorlaydi. SHunday qilib ob'ektni qayta tiklaydi.




Fotonika asoslari, fotonik kristallar va ularning xususiyatlari.

Fotonika termini kelib chiqishi elektronika terminiga o'xshash bo'lib, yorug'likning turli muxitlarda tarqalish va modda bilan o'zaro ta'sirlashuv xususiyatlarini o'rganuvchi fanni ifodalaydi. Fotonika fani yorug'likni kvant xususiyatlarini o'rganadi va shu fizik jarayonlar asosida yorug'likni generatsiyalash, uni xususiyatlarini boshqarish, yorug'likni uzatish, qayd qilish va boshqalarni uz ichiga oladi.

Yorug'lik elektromagnit nurlanishning Infraqizil ($\lambda = 2 \text{ mm}$ ($\nu = 1,5 \times 10^{11}$ Gts)) sohasidan to Ultrabinafsha ($\lambda = 10^{-6} \text{ cm}$ ($\nu = 3 \times 10^{16}$ Gts)) sohasigacha bo'lgan oraliqni egallaydi.

Ko'rinuvchi soha $\lambda = 400 - 760 \text{ nm}$, Ultrabinafsha – $\lambda = 10 - 400 \text{ nm}$, Infraqizil - $\lambda = 760 \text{ nm} - 2 \text{ mm}$.




Foton kristallar umuman olganda uch turda bo'ladi:

- Bir o'lchamli foton kristallar
- Ikki o'lchamli foton kristallar.
- Uch o'lchamli foton kristallar

Bir o'lchamli kristallarda muxit sindirish kursatgichi periodik jixatida bir yo'nalish bo'ylab o'zgaradi (1D). Bunday strukturalar birinchi kullanishi spektral filtrlar ishlab chiqishga to'g'ri keldi. Keunchalik turli optik elementlarni shu turdagi plenkalar bilan qoplash boshlandi va bu turdagi elentlar yoritilgan optika nomi bilan ataldi.

Quyidagi rasmda turli foton kristallari sxematik tasviri keltirilgan



Ikki o'lchamli foton kristallar fazoda ikki yo'nalish bo'yicha periodik strukturaga ega bo'ladi(2D).

Uch o'lchamli foton kristallar fazoda uch yo'nalish bo'yicha periodik strukturaga ega bo'ladi(3D).

Foton kristallarini o'rganish tarixi.

❖ First studied by **Lord Rayleigh in 1887, in connection** with the peculiar reflective properties of a crystalline mineral with periodic “twinning” planes.

❖ He identified a narrow band gap prohibiting light propagation through the planes

❖ In **1987**, when Yablonovitch and John joined the tools of classical electromagnetism and solid-state physics, that the concepts of omnidirectional photonic band gaps in two and three dimensions was introduced

❖ This generalization, inspired the name **“photonic crystal”**

Nurlanish manbalari. Nurdiod. Lazerli diod. Fotonlarni qabul qilish.

Yorug'lik manbalarining spektrlarida spektraskopiyada asosan ikkita vazifa bajariladi.

1) Manba spektroskopik tadqiqot obekti vazifasini bajaradi.

2) Yorug'lik manbasi yordamida biror ob'ekt xaqida spektraskopik malumot olinadi.

Birinchi xolda yorug'lik manbasi chiqarayotgan nurlanish manba xaqida mahlumot olib keladi. Bu xolda spektroskopik analiz usullari manba xolatiga xech qanday tasir o'tkazmaydi. Ikkinchi xolda yorug'lik manbasi yordamida tekshirish obektiga biror tahsir o'tkazmaydi.

Ikkinchi xolda yorug'lik manbasi yordamida tekshirish obektiga biror tahsir o'tkaziladi va natijada xosil bo'lgan nurlanish kuzatiladi. (Misol fotolyumensetsiya yutish spektri va xo.zo)

Birinchi xolda manbaga xar qanday tasvir olmaymiz, yahni manbani spektri yoki uni yorqinligini o'zgartira olmaymiz.

Ikkinchi xolda biz manbani xarakteristikalarini o'zimizga qulay qilib tanlashimiz mumkin.

Yorug'lik manbasi tasir vositasi sifatida ishlatilganda uni asosan ikki xarakteristikasiga etibor beriladi.

1. Yorug'lik manbasi quvvati va uni (quvvatini) vaqtga intensivlikning bog'liqligi.

2. Spektral taqsimoti va uni (taqsimotni) vaqt bo'yicha o'zgarishi.

Manba o'garmas deyiladi agarda nurlanish quvvati vaqt bo'yicha o'zgarmasa. Bu xarakteristikani ko'rsatgichi sifatida (stabillik ko'rsatgichi)

$$M = \sqrt{\frac{\Delta B^2}{B^2}} \quad \text{-kattalik olinadi. Bu yerda B- yorug'lik}$$

$$B = \frac{\Delta I}{\Delta S \cos \varphi}$$

$$I = \frac{\Phi}{\omega} = \left[\frac{\text{vatt}}{\text{m}^2 \text{fer}} \right] \text{-yorug'lik kuchi}$$

S- manba yuzasi φ – **manba sirtiga o'tkazilgan** normal bilan kuzatish orasidagi burchak $\phi = \frac{w}{t}$ -yorug'lik oqimi w-nurlanish energiyasi.

Ideal stabillangan nurlanish manbasida $M=0$ bo'ladi ko'p xolda 345% og'ishlik spektral intinsivliklarni aniqlash xatoligiga tahsir ko'rsatmaydi .Bazi xolda obg'ektga qisqa muddat tahsir o'tkazib, uni reyaksiyasi kuzatiladi.U xolda nurlanish impuls ko'rinishida bo'lishi kerak. Uxolda stabil manbadan kelayotgan

yorug'lik modulyattsiyalanadi, yoki gazlardan tok impulsi o'tkazib razryad olinadi. Mexanik modulyatsiyalarda olinadigan impulslarda


$$\tau = 10^{-4} \text{ч} 10^{-5} \text{сек}$$

Pezoelektrik defpektorda $10^{-6} \text{ч} 10^{-7}$ gacha olish mumkin Lazerlarda modular fazasini sinxronlashtirib $10^{-13} \text{ч} 10^{-14}$ sek olish mumkin.

Nurdiod

Nurdiod yoki svetodiod (yorug'lik diodi) arsenit – fosfid – galiy asosida yasaladi. Svetodiod orqali tok o'tganda u o'zidan yorug'lik chiqaradi.

Bir necha milliamper tokda nurdiod aniq yiltiraydi. Yiltirash to'g'ri tokka proporsional bo'ladi. Shuning uchun ulardan yarimo'tkazgichli asboblarda indikatsiya elementi sifatida foydalaniladi.



Rasm. Nurdiod tuzilishi

Mabodo bitta gilofga nurdiod (yorug'lik tarqatuvchi) va fotorezistor elementi (yorug'lik qabul qiladigan), xolda masalan, fotorezistor joulashtirilsa, zanjirlarni to'la golvanik ajratgan xolda kirish tokini chiqish tokiga aylantirish mumkin bo'ladi.

Bunday optoelektrik elementlar **optronlar** deb ataladi. Optronlarda tokni uzatish koeffitsenti 0,1 dan bir-necha minggacha birlikni tashkil qiladi.

Optronlar. a) diodli, b) rezistorli, v) tranzistorli, g) tiristorli.

Optron asboblari deb, u yoki boshqa ko'rinishda o'zaro aloqani oshiruvchi nurlanish manbai va qabul qilgichga (yorug'liknurlagich va fotoqabulqilgich) ega

bo'lgan yarimo'tkazgichli asbobga aytiladi. Har qanday optronlarni ishlash prinsipi quidagilarga asoslangan.

Nurlagichda elektr signal energiyasi yorug'likka, fotoqbulqilgichda esa, uni teskarisi yorug'lik signali elektr signaliga o'zgaradi. Amalda tarqalgan optronlar bo'lib, qaysiki unda nurlagichdan fotoqbulqilgichga tomon to'g'ri optik aloqaga ega bo'lganlari bo'lib, bunda elementlar orasidagi hamma ko'rinishidagi elektr aloqalar bo'lmaydi.

Optik aloqani mavjudligi kirish (nurlagich) va chiqish (fotoqbulqilgich) orasidagi elektr izolyasiyani ta'minlaydi. Shunday qilib, bunday asbob elektron zanjirlarda aloqa elementi funksiyasini bajaradi, shu bilan bir vaqtda kirish va chiqish elektr (galvanik) yechimi amalga oshirilgan. Optoelektron asboblarni qo'llanilishi yetarlicha turli: apparat bloklari aloqasi uchun, qaysiki ular orasida ancha katta potentsiallar farqi bo'ladi; o'lchash qurilmalarini kirish zanjirlarini shundan himoyalash uchun va yuqori kuchlanishli zanjirlarni sozlash, optik, kontaktsiz boshqarish, quvvatli tiristorlar, simistorlarni ishga tushirish, elektromexanik releli qurilmalarni boshqarishlar kiradi.

“Uzun” optronlarni (optik kanal sifatida uzun ingichka optik – tolali asboblar) yaratilishi optron texnika maxsulotlarini qo'llashni mutlaqo yangi yo'nalish – optik tola bo'yicha masofaviy aloqani ochdi. Optoelektron asboblar sop radiotexnik sxemalar modulyasiyasi, kuchayishni avtomatik boshqarish va boshqalarda qollaniladi. Bu yerda optik kanalga ta'sir natijasida sxemani optimal rejimga o'tkazish uchun, kontaktsiz rejimni sozlash va shunga o'xshashlardan foudalaniladi.

Optronlarda ancha keng universal ko'rinishdagi nurlagichlardan biri yario'tkazgichli ijeksion yorug'liknurllovchi diod – yorug'diod hisoblanadi. Uni afzalliklari quyudadilarga bog'liq:elektr energiyasini optikka aylantirishda FIK ni yuqoriligi; nurlanish spektrini (kvazimonoxromatikligi) qisqaligi; turli yorug'lik diodlar bilan keng spectral diapazonda yopilishi; nurlanishni yonalishligi;yuqori tezkorligi; ta'minlovchi kuchlanish va toklar qiymatlarini kichikligi; trnzistorlar va integral sxemalar bilan mosligi; to'g'ri tokni o'zgartirish bilan nurlanish quvvatini

modullashni soddaligi; impuls va uzluksiz pejimda ishlash mumkinligi; ancha keng kirish toklar diapazonida vat-amper xarakteristikasini chiziqiligi; yuqori mustaxkam va chi damlilikgi;kichik o'lchamliligimikroelektron maxsulotlar bilan texnologik mosligi.

Nurdiodlari elektronlar va kovaklar rekombinasiyasi hisobiga elektr energiyasini yorug'lik energiyasiga aylantiradi. Oddiy diodlarda elektronlar va kovaklar rekombinasiyasi issiqlik ajralishi bilan yuz beradi, yani yorug'lik nurlanishsiz. Bunday rekombinasiya fononli deyiladi. Nurdiodlarda 39 rekombinasiya yorug'lik nurlanish yuz berib, qaysiki fotonli deyiladi. Odatda bunday nurlanish rezonansli va qisqa polosa chastotada yotadi. Nurlanishni to'lqin uzunligini o'zgartirish uchun tayorlangan nurdiodining materialini o'zgartirish kerak, yoki ma'lum hollarda (ikkirangli nurdiodlar) yorug'lik diod orqali to'g'ri tok o'zgartiriladi. 3 – a.b rasmlarda yorug'likdiod qurilmasimi sxematik belgisi, 3 – v rasmda esa uni nurlanish spectral xarakteristikalari berilgan. Ko'zga ko'rinadigan spektrda nurlaydigan yorug'likdiodlarini tayorlash uchun fosfid galliy yoki qattiq eritma GaAsP dan foudalaniladi. IQ – diapason yaqin uchun diodlar ko'pincha kremniy, arsenid galiy yoki qattiq eritma GaAlAs lardan foudalaniladi.

Nazorat savollari

1. Fotonlar guruhlanish effekti.
2. Lazer fizikasi asoslari.
3. Lazer tuzilishining asosiy printsiplari.
4. Lazer ishlash printsiplari.
5. Mazer
6. Fotonika asoslari.
7. Fotonika usullari va asosiy yo'nalishlari.
8. Foton kristallar
9. Bir o'lchamli foton kristallar
10. Ikki o'lchamli foton kristallar.
11. Uch o'lchamli foton kristallar
12. Optik nurlanishlarni qayd qiluvchi qurilmalar.

13. Elektromagnit to'liq nurlanishlarini fotogarfik usulda qayd qilish.
14. Elektromagnit nurlanishlarini fotoelektirik usulda qayd qilish.
15. Nurdiodlar. Ularning asosiy xarakteristikalari.
16. Lazerdiodlar. Ularning asosiy xarakteristikalari.
17. Fotopriyomniklarning spektral sezgirliklari.

**2-MAVZU. BIR JINSLI BO'LMAGAN MUHIT OPTIKASI. OPTIK
NURTOLALAR. OPTIK NURTOLALI ALOQA TIZIMLARI. OPTIK
NURTOLALI DATCHIKLAR. OPTIK GIROSKOPLAR.**

Reja:

1. Bir jinsli bo'lmagan muhit optikasi.
2. Optik nurtolalar.
3. Optik nurtolali aloqa tizimlari.
4. Optik nurtolali datchiklar.
5. Optik giroskoplar.

Tayanch iboralar: bir jinsli bo'lmagan muhit optikasi, optik nurtolalar, optik nurtolali aloqa tizimlari, optik nurtolali datchiklar, optik giroskoplar.

Bir jinsli bo'lmagan muhitlar optikasi — optikaning sindirish ko'rsatkichi p bir xil bo'lmay, koordinataga bog'liq ravishda o'zgaradigan, optik jihatdan bir jinsli bo'lmagan muhitlarda elektromagnit to'liqlarning tarqalish qonunlarini o'rganadigan bo'limi. Optik bir jinslilik muhitning sirtida va hajmida buzilishi mumkin. Fizik tabiatidan qat'i nazar, bir jinslilikning buzilishi nurning boshlang'ich tarqalish yo'nalishidan og'ishiga olib keladi. Turli sindirish ko'rsatkichlariga ega muhitlarni ajratuvchi sirtlarda nurning qaytish va sinish hodisalari yuz beradi. Muhit ichidagi sindirish ko'rsatkichi muhitnikidan farq qiladigan, mikrohajmli bir jinsli bo'lmagan joularda nurning sochilishi kuzatiladi.

Bir jinsli bo‘lmagan muhitlarga xira muhitlar kiradi. Bunday muhitlarda bir jinslilik buzilgan joularning o‘lchamlari, odatda, yorug‘lik to‘lqin uzunligi X dan katta bo‘ladi.

Bir jinsli bo‘lmagan muhitlarga molekulalarning issiklik harakati natijasida kichik hajmlarda muhit zichligi fluktyatsiyalari (tebranishlari) hisobiga shu joudagi sindirish ko‘rsatkichining o‘zgarishlari sodir bo‘ladigan muhitlar ham kiradi. Yorug‘likni yutmaydigan dielektrik zarralarda bo‘ladigan nurning sochilish intensivligi (I) X , ga mutanosib bo‘lib, rzarra o‘lchamining yorug‘lik to‘lqin uzunligiga nisbatiga bog‘liq parametr. O‘lchamlariAdan ancha kichik issiklik (zichlik) fluktyatsiyalari yuz beradigan muhitlarda sochilish intensivligi $1 \sim X \sim *$ (Releu qonuni). O‘lchamlari X dan ancha katta zarralardagi sochilish uchun r ning qiymati nolga yaqin va sochilish intensivligi to‘lqin uzunligiga bog‘liq bo‘lmaydi. Bunday hol yorug‘likning tuman va bulutlarda sochilishida kuzatiladi.[

Insoniyat taraqqiyotida aloqaning, xususan, optik aloqaning roli katta bo‘lgan, bunga sabab uning tarqalish tezligining juda kattaligidir, ($vq3 \cdot 10^{10}$ sm/s) ham to‘g‘ri chizikli tarqalish va boshqa xususiyatlariga bog‘liq. Masalan, XVIII asrdayoq quyosh nurini qaytaruvchi ko‘zgulardan foudalanish asosida ishlaydigan optik telegraf va murakkab signallarni uzatish qobiliyatiga ega bo‘lgan semoforlar yaratildi. Axborotni masofaga uzatishda yorug‘lik nurining qulayligini sezgan amerikalik telefon ixtirochisi A. Bell bundan 125 yil avval optik telefon (fotofon)ni yaratdi.

U o‘zining qurilmasi yordamida odam ovozi nur orqali 200 metr masofaga uzatdi. Bunda mikrofonning tebranishidan qaytuvchi quyosh nuri ovozni tashuvchi bo‘lib xizmat qildi. Hozirgi kunda deyarli har bir yuda radio, televizor va telefon bor, shaharlar va maydonlar o‘rtasida yotqizilgan kabellar yordamida koinotdan Yerning sun‘iy yo‘ldoshlari orqali keng miqyosda axborotlar uzatilib turiladi. Ammo aloqa texnikasining rivojlanishi, elektronikaning zamonaviy yutuqlari, elektromagnit to‘lqinlarining sm va mm diapazonining o‘zlashtirilishi ham hozirgi paytda mislsiz ko‘payib ketayotgan axborot talablariga javob bermay qoldi: amaliyot axborotning zichligi, uzatish chastotasining oshirilishi aloqa kanallarini

zichlashtirish kabi qator talablarni qo'ymoqda. Shuning uchun ham dunyo mutaxassislari birinchi navbatda optik diapazonga qayta-qayta e'tibor bera boshladilar.

Shuningdek, dunyodagi mis konlari borgan sari kamayib bormoqda. Vaholanki, texnikada juda kerak bo'lgan bu metallning deyarli yarmi kabellar uchun ishlatiladi. Olimlarning taxmini bo'yicha mis ishlab chiqarish XXI asrda keskin ravishda kamayadi.


Demak, biror chora topilmasa, kabel ishlab chiqarish tushkunlikka uchrashi turgan gap. Shuning uchun ham mis simlardan voz kechib, axborotni shaffof shisha tolalar orqali nur yordamida uzatishga o'tish lozimligini tushunib uetildi. Demak, shisha tolalarni ishlatish ikki ijobiy yutuqqa — axborot uzatish tezligini keskin oshirib, qimmat hisoblangan misni katta miqdorda iqtisod qilishga imkon beradi. Ta'kidlash lozimki, O'YuCh -diapazoni ($q=1-20\text{sm}$) bo'lgan elektromagnit to'lqinlar mukammal o'zlashtirilgandan so'ng navbat optik diapazonga uetib keldi. 60-yillarda kashf etilgan lazerlar ham katta samara bermadi. Chunki axborotni lazer nuri bilan ochiq atmosferada uzatish yaxshi natija bermadi. Bunga sabab atmosferadagi temperatura, havo oqimi, changlar, tuman va h.k. lar tinimsiz o'zgarib turganligi uchun ochiq havo nur o'tkazuvchi muhit sifatida ishlatishga yaroqsizligi aniqlandi.

Lazer nurini trubalar ichida uzatib ko'rildi, lekin bu yo'l ham fouda bermadi. Shuni aytish kerakki, nur o'tkazuvchi shisha tolalar 60 — yillarda ma'lum edi. Ularning diametri 100 mkm bo'lib, o'zak va uni o'rab olgan qobiqdan iborat edi. O'zakning sindirish ko'rsatkichi qobiqning sindirish ko'rsatkichidan biroz katta bo'lishi kerak. Lazer nurini shunday tolalar orqali uzatishga urinib ko'rildi, ammo bunday tolalar juda katta yutish koeffisientiga ega bo'lib, taxminan 1000 db/km ga teng. Bunday tolaga kiritilgan nur bir necha metr masofadan so'ng deyarli butunlay yutilib ketadi. Ammo 1966 yilda ingliz olimlari Kao va Xokxem o'zlarining ilmiy izlanishlarida optik shishalardagi nurning yutilish sabablarini taxlil qilib, nurning yutilishiga asosiy sabab He, Ni, Si, Sg va shunga o'xshash metallar shisha sintez qilinayotganda tashqaridan (havodan, tigeldan) kirib qolgan metall ionlari ekan.

Agar shishalar ana shu ionlardan tozalansa, yutish koeffisienti $a < 20 \text{ db/km}$ bo'lgan tolalar olish mumkinligini isbotlangan.

Bu maqoladan so'ng dunyo miqyosida yutish koeffisienti kichik bo'lgan nur o'tkazuvchi tolalarni olish bo'yicha ishlar juda kuchayib ketdi. Nihoyat, 1970 yil "Korning Glass" firmasi mutaxassislari to'lqin uzunligi 0.63 mkm bo'lgan nur uchun yutish koeffisienti 20 db/km dan kichik bo'lgan nur uchun nur o'tkazuvchi tolalarni yaratdilar. Bunday tolalar uzun to'lqinli optik aloqa liniyalarida ishlatilsa bo'ladigan sifatlarga ega edi. Shuning uchun 1970 yil tolali optikaning tug'ilgan yili deb sanala boshlandi. Ana shundan so'ng tolali optika aloqasi misli ko'rilmagan tezlik bilan rivojlanib ketdi, ular ishlatiladigan sohalar ko'paya boshladi: telefon tarmoqlari orqali ishlaydigan televidenie, aviatsiya va dengiz flotida, bort aloqasi, hisoblash texnikasi, texnologik jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish tizimi va h.k.larda ham ishlatila boshlandi.

Bundan tashqari, nurli tolalarning tashqaridan tushuvchi elektromagnit to'lqinlarning ta'sirini sezmasligi, vaznlari kam va ixchamligi ham aniqlandi. Shunday qilib, optik aloqa tizimlarining negizi shaffof va toza shishadan qilingan tola bo'lib, u yaxshi xizmat qiladi.




1-rasm.


Optika qonunlaridan ma'lumki, tola ichiga kiritilgan nur tashqariga chiqmasdan tarqala oladi. Bunda tola to'g'ri chiziq bo'yicha yo'nalgan yoki barabanga o'ralgan bo'lishi mumkin. Buning sababi nur tola ichida tarqalar ekan, uning chegarasiga tushadi va yana ichkariga to'la qaytadi. Bu nur tolaning ikkinchi

chegarasiga tushadi va yana undan ichkariga to'la qaytadi va h.k., bu jarayon uzluksiz davom etadi.

Demak, nurning tarqalish sharti uning tola yon chegarasida to'la ichki qaytishi ekan. Bu juda oddiy va optikada keng qo'llaniladigan hodisadir. Faraz qilaylik (1-rasm), nur sindirish ko'rsatkichi n_1 va radiysi R bo'lgan silindr shaklidagi muhitda tarqalayotgan bo'lsin. Tashqi muhitning sindirish ko'rsatkichi n_2 bo'lsin. U holda nur ikki muhit chegarasiga tushganda sinadi va qisman qaytadi. Sinish (α_2) va tushish (α_1) burchaklari Snelliys qonuniga bo'ysinadi: $n_1 \sin \alpha_1 = n_2 \sin \alpha_2$ yoki $\sin \alpha_1 = \frac{n_2}{n_1} \sin \alpha_2$. Agar biz tushish burchagini (α_1) kattalashtirib borsak, sinish burchagi α_2 ham ortib boradi va ikkinchi muhitga singan nur tola chegarasiga qarab ko'proq egila boshlaydi. α_1 burchak ma'lum kritik qiymatga erishganda $\alpha_2 = 90^\circ$ bo'ladi. Bu holda singan nur tola chegarasi bo'ylab tarqaladi va ikkinchi muhitga o'tmaydi, to'la ichki qaytish sodir



2 (a) - rasm. Tolaning ko'ndalang (a) va bo'ylama (b) kesimi.




bo'ladi. 2 (b) - rasm.

Bu burchak $\sin \alpha_1 = \frac{n_2}{n_1}$ ga teng biladi. Nihoyat tushish burchagi $\alpha_1 = \alpha_1^T$ bo'lganda tola chegarasiga tushayotgan nur energiyasining deyarli hammasi yana tola ichiga qaytadi, agar α_1



Shisha tola nur tarqatishga juda qulay muhit bo'lsa ham, uning kamchiliklari bor: 1) u ochiq havoda ($n_2 < 1$) bo'lgani uchun unga tashqi muhit ta'sir ko'rsatadi, uning ustiga changlar o'tirib iflos qiladi, bu esa nurning so'nishiga olib keladi; 2) tolani ushlab turuvchi tayanchlarning kontaktlarida qo'shimcha so'nish paydo bo'ladi. Bundan tashqari, shisha tola mo'rt bo'ladi. Agar uning ustiga qandaydir muhofaza qatlamlari yotqizilmasa, sinib ketishi juda oson. Bu kamchiliklar ikki qatlamlik hisobiga bartaraf etiladi. (2 (a -b) - rasm). Shishali tolalar cho'zib olinib ($q_{qT} = 2000^\circ\text{s}$ ga yaqin), barabanlarga o'rab olinganliklari uchun bunday tolalarda nurning troektoriyasi egri chiziq bo'lib, uning aniq qaytadigan chegarasi bo'lmaydi. Qobiq tarafga yo'nalgan nur tola o'qi tarafiga qarab egila boshlaydi va u yana o'zak markaziga qarab tarqaladi. Shisha tolalar orqali axborot yuborilganligi uchun ularning so'nish koeffisienti minimal bo'lishi zarur, chunki optik aloqa liniyalari (1-100) km masofalarga cho'zilishi mumkin. Buning uchun ularning yutish koeffisienti $q_{q01} = 1\text{db/km}$ bo'lishi kerak. Bunday katta talabga faqat a'lo sifatli optik shishalar, ayniqsa shishasimon kvarslar javob beradi. Kvars boshqa shishalardan o'zining bir jinsliliigi va nurning Relecha sochilish koeffisienti kichikligi bilan ajraladi.



Optik kabelning qirqimi: 1 - shisha tola; 2 - polietilenli trubka;
 3 - plastmassali o'zak; 4 - polietilenli himoya qobig'i;
 5 - polietilenli himoyalovchi shlang

Sanoatda ishlatiladigan shisha tolalar juda toza kvardan cho'zib 2000S° da olinadi va maxsus lak bilan qoplanadi. Bu uning mexanik mustahkamligini ancha oshiruvchi lak bilan, so'ng bu tola ustiga polimer materialdan muhofaza qatlami qoplanadi. Shundan so'ng sanoatda (aloqada) ishlatiladigan optik tola tayyor bo'ladi




Optik tolali kabel

Bu tolali optik aloqa liniyalarining buyukligi shundaki, ular orqali millionlarcha telefon signallarining bir vaqtda uzatilishini ta'minlash mumkin. Bu kabellar suv ostida, yer ostida xonalarda va boshqa sharoitlarda ishlatilishi mumkin. Optik aloqa tizimlarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: Keng sathlilik (agar nur manbai sifatida yarim o'tkazuvchanlik dioddan foudalanilsa) va qq10q250 Mgs tashkil qiladi, yarim o'tkazuvchili lazer ishlatilsa, u holda ~0,5 MGs ga teng bo'ladi. Bu kabi aloqa liniyalarini kuchli tokli kabellar va yuqori voltli elektroenergiyani uzatuvchi liniyalar yaqiniga joulashtirish mumkin.

Optik kabelning haqiqiy tuzilishlaridan birining kesimi 3-rasmda keltirilgan. Optik kabelli tolalar orasidan o'tuvchi halaqitlarning juda kamligi, bu tolalarning sonini

bir necha yuz bor oshirish imkonini beradi. Atrof -muhitga optik kabeldan elektromagnit nur tarqalmaydi. Yuqori texnologik integrasiyaga egaligi; tabiiy ofatlarni (Er qimirlashi, toshqinlar, sel va hokazo) sodir bo'lishi kutilayotgan mintaqalardagi muhitlarda ishlay olish qobiliyatining borligi, ularning simli kabellardan afzalliklarini ko'rsatadi.



Optik tolali aloqa tizimida axborot uzatishning umumiy ko'rinishini 10-rasm orqali tushuntirish mumkin. Aloqa liniyasida uzatish uchun mo'ljallangan uzluksiz yoki raqamli elektr signali uzatish tomonidagi yarimo'tkazuvchanli lazerli yoki yorug'lik manбайдan chiqayotgan optik nurlarni modulyasiyalaydi va buning oqibatida elektr signalini optik (yorug'lik) signaliga aylantirib, so'ngra optik tola bo'ylab uzatiladi. Tizimning qabul qilish tomonidagi toladan chiqib kelayotgan optik signal r-l-p yoki ko'chkili fotodiod asosida qurilgan fotodetektorga kiritiladi. Fotodetektor esa, unga tushayotgan optik nurlarni dastlabki uzluksiz raqamli elektr signaliga aylantirib beradi.

Optik nurtolalarda nurlarning tarqalishi.

Optik tolali aloqaning tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy dalillar asosida ma'lumotlar professor Yu.R.Nosovning ilmiy-ommabop kitobida bayon qilingan

Tolali optik tizimlarda asosan uch turdagi yorug'lik manbalaridan foudalanib kelinayapti: qattiq jisimli lazerlar, yarimo'tkazgichli yorug'lik sochuvchi diodlar va yarim o'tkazgichli injeksion lazerlar. Ammo hozirgi paytda uzluksiz tartibda ishlash uchun, geterolazerlar qo'llanilmoqda. Bunday lazerlar maxsus ko'p

qatlamli geterolazerlar tizimidan iborat bo'lib, ularning tavsiflari mavjud: 1. Lazerdan o'tayotgan tok bilan nurning sochilish quvvatini bog'lovchi volt-amper tavsifi; 2. Nurlanishning modali tarkibi; 3. Nurlanishning yo'naltirish diagrammasi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar va mulohazalarga binoan quyidagi ta'rif asosli bo'la oladi: Fizikaviy muhit sifatida optik kabeldan foudalanib uzatish tomonidagi birorta punktdan qabul qilish tomonidagi boshqa bir punktga axborotlarni uzatishni ta'minlovchi texnik vositalar to'plami tolali aloqa tizimi, deb ataladi.

4) bu toklarni uzatkichning elektr tebranishlarining modulyatsiyasiga mos ravishda aylantirish va 5) modulyatsiya qilingan-modulyasiyalangan elektromagnit to'lqinlarni uzatish. Endi qabul qiluvchi televizion radiostansiyalarda antennalar tomonidan qabul qilib olinayotgan o'zi bilan ko'rinuvchi signallarni (tasvir signallarini) olib keluvchi, radioto'lqinlar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni qarashga o'taylik.

Televizion stansiyaning radioqabul qiluvchisini televizor deb atalib, uning asosiy qismi maxsus konstruksiyaga ega bo'lgan elektron nurli trubka — kineskopdir (kineskop — grekcha so'z bo'lib, u yoki bu predmetning harakat, holatini ko'rsata oladigan qurilmadan iborat). Kineskop ekranining ichki qismi nurlanuvchi modda bilan qoplangan. Bu modda (SS yoki kadmiyning volframli birikmasi) bir qancha talablarga javob beradi: 1) uning ko'rinishi elektrodlar dastasi yordamida vujudga kelib, uning to'xtashi bilan nurlanish to'xtashi zarur; 2) nurlanishning elektron nur intensivligiga to'g'ri mutanosib bo'lishi shart va h.k.

Elektron nuri kineskop ekrani bo'ylab ikonoskop elektron dastasi harakatiga sinxron ravishda harakatlanib chiqadi. Uzatuvchi va qabul qiluvchi stansiyalar yoyuvchi generatorlarning sinxron ishlaganida biz televizor ekranida ikonoskop sezgir qatlamining oldida turgan predmetni ko'ramiz. Ikonoskop va kineskop elektron dastalarining sinxronizasiyasi uzatuvchi stansiyadan jo'natiluvchi-sinxronizasiyalovchi signallar yordamida amalga oshiriladi. Bu signallar qabul qiluvchi stansiyaning yoyuvchi generatorlariga ta'sir qiladi.


Ko'rinuvchi signallarning har xil intensivligi elektron dastadagi elektronlar sonini o'zgartiradi, bu esa o'z elektron dastasi tushayotgan kineskop ekranining ko'p yoki kam nurlanishiga olib keladi. Shunday qilib, kuzatuvchi ekranida ikonoskop sezgir qatlamiga tushirilgan tasvirning teng qiymatli suratini ko'radi. Bunda tasvir signallari qora va yorug' elementlar ko'rinishi (oq-qora televidenie) da namoyon bo'ladi.

Tola optikasi — yorug'lik va ma'lumotlarni optik diapazondagi nur o'tkazgichlar (nur tolalari) da tarqalishini urganadigan optika bo'limi. Tola optikasi 20-asrning 50-yillarida vujudga kelib, 70-yillarning boshida spektrning ko'rinuvchi va infraqizil sohalarida so'nish koeffitsienti 20 dBG'km dan kam bo'lgan kvars shishasi olinishi bilan jadal rivojlana boshlagan. Nur tola sindirish ko'rsatkichlari bir-biridan farq qiluvchi silindr shaklidagi shisha yoki plastik o'zak va uni o'rab turuvchi qobiqdan tashkil topgan. O'zakning sindirish ko'rsatkichi qobiqnikidan katta bulgani uchun, ular chegarasida yorug'likning to'la ichki qaytish hodisasi yuz berib, uzak ichiga kiritilgan nur tashqariga chiqib ketmasdan nur tola ichida tarqaladi. Hup tola o'zagining diametri bir necha mikrondan yuzlab mikrongacha, qobiq qalinligi o'nlab mikrondan yuzlab mikrongacha o'zgarishi mumkin.

Tola optikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar nur tolalarning keng ko'lamda optik aloqada qo'llanilishiga olib keldi. Hozirgi kunda an'anaviy simli aloqa kabellari o'rnini axborot uzatish imkoniyatlari katta bo'lgan nur tolali kabellar egallamoqda. Atlantika va Tinch okeanlari suv ostidan o'tkazilgan nur tolali aloqa kabellari Osiyo va Uevropa davlatlarini Amerika qitasi bilan bog'lab turibdi.

Optik tasvir myayyan tartib bilan joulashtirilgan nur tolalar dastasi orqali uzatiladi. Dastadagi tolalar soni bir necha ming, hatto, millionlarni tashkil etib, dasta uchlariga maxsus ishlov beriladi. Nur tolalar dastasi tibbiyotda odam ichki a'zolarini yoritish va kurishda (endoskop), tezkor kinoga olishda, yadro zarralarining yuqori tezlik (trek) larini qayd qilishda va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

Optik tolada yorug'lik nurini uzatish geometrik optika qonunlariga asoslangan. Bu qonunlarga muvofiq yorug'lik nuri o'zak bo'ylab zigzaksimon liniyalar hosil qilib tarqaladi. O'zakning sindirish ko'rsatkichi n_1 qobiqning sindirish ko'rsatkichi n_2 dan katta bo'lishi sababli optik nur faqat o'zak bo'ylab tarqaladi. Bu nur sindirish ko'rsatkichi katta muhitdan sindirish ko'rsatkichi kichik muhitga o'tganda ikki muhit chegarasida singan nurni normal nurdan og'ishi bilan tushuntiriladi. Masalan: buni nur suvdan xavoga o'tganda ham kuzatish mumkin. Ikki muhit chegarasiga tushish burchagi Θ_1 oshgan sari singan nurni normal nurdan og'ishi ham oshib boradi. Normal nurga nisbatan singan nur burchagi Θ_2 90° ga uetgach, singan nur chegara yuzasi bo'ylab tarqala boshlaydi. 1-rasmda turli



tushish burchaklarida nurni tarqalishi ko'rsatilgan.

1-rasm. Bir necha tushish burchaklari uchun nurni tarqalish yo'li, $n_1 > n_2$, bu yerda n_1 va n_2 ikki turli muhitlarning sindirish ko'rsatkichlari 1(a)-rasmda tushish burchagi Θ_1 kichik bo'lganda singan nur to'liq qobiqqa o'tib ketadi. 1(b)-rasmdagidek signal kritik burchak ostida tushganda singan nur chegara bo'ylab

tarqaladi. 1(v)-rasmda tushish burchagi kritik tushish burchagidan oshganda to'liq ichki qaytish yuzaga kelishi tasvirlangan. «O'zak-qobiq» chegarasida signal energiyasi to'liq qaytadigan bu burchak to'liq ichki qaytish burchagi $\Theta_{t.i.q.}$ deyiladi. To'liq ichki qaytish burchagi quyidagicha aniqlanadi:


$$\Theta_{t.i.q.} = \arcsin \frac{n_2}{n_1}$$

bu yerda n_1 -o'zakning sindirish ko'rsatkichi; n_2 -qobiqning sindirish ko'rsatkichi. O'zak va qobiq tayyorlanadigan materiallarning sindirish ko'rsatkichlari nisbatini optimal tanlash orqali yorug'lik nurining o'zak ichida to'liq ichki qaytishi ro'y beradi va nurni faqatgina optik tola o'zagi bo'ylab tarqalishi ta'minlanadi.

Uzatish uchun nur ma'lum bir burchak ostida optik tolaga kiritiladi. Yorug'lik nurining tola o'zagiga maksimal tushish burchagi burchak aperturasi Θ_a deyiladi. Burchak aperturasining sinusi sonli apertura deyiladi va NA xarflari bilan belgilanadi (N-number-son, A-aperture-teshik). Sonli apertura quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$NA = \sin \Theta_a = \sqrt{n_1^2 - n_2^2}$$

Keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, optik tolaning sonli aperturasi NA faqatgina o'zak va qobiqning n_1 va n_2 sindirish ko'rsatkichlariga bog'liq. Bunda xar doim $n_1 > n_2$ shart bajariladi 2-rasm.



-rasm. Optik tolada yorug'lik nurining tarqalishi.

Optik tolaning sonli aperturasi

Optik tolada nurni tarqalish tezligi o'zakning sindirish ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lib, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$C_m = \frac{c}{n_1}$$

,

bu yerda S -vakyumda nurni tarqalish tezligi; n_1 -o'zakning sindirish ko'rsatkichi.

O'zak materialining sindirish ko'rsatkichi 1,45-1,55 oraliqda yotadi.

Ma'lumki to'lqin uzunligi uchun xarakterli bo'lgan optik tolaning yana bir xususiyati bu normallashtirilgan chastota n bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi

$$n = n_1^2 - n_2^2.$$

Bu yerda a -o'zak radiysi, n_2 -qobiqsiz optik tola $\sqrt{\frac{2\pi a}{\lambda}}$ uchun 1 ga teng. Nurni tolada

tarqalish jarayonini ta'riflash uchun bir necha asosiy parametrlar qo'llaniladi. Bu muhim parametrlarga so'nish va dispersiya kiradi.

So'nish va dispersiya oraliq punktlarsiz optik aloqa liniyasi uzunligini yoki oraliq punktlar orasidagi masofani qisqartirishi mumkin.

Dispersiya asosan ikki omil tufayli yuzaga keladi. Ulardan biri material dispersiyasi, boshqasi-moda dispersiyasi.

Optik tola orqali tarqala oladigan, ruxsat etilgan yorug'lik to'lqinlari modalar (yoki shaxsiy to'lqinlar) deyiladi.

Material dispersiyasi material sindirish ko'rsatkichini chastotaga bog'liq xolda o'zgarishi bilan hosil bo'ladi. Moda dispersiyasi tola orqali bir necha modalarni uzatishdan hosil bo'ladi. Tola orqali turli modalar turli faza va guruhli tezlikda uzatiladi, qabul qiluvchi punktlarga xam turli vaqtlarda uetib keladi. Natijada tolada turli modalarni xar xil kechikish bilan tarqalishidan buzilishlar (dispersiya) yuzaga keladi.

Modalar sonini yorug'lik uzatgich optik tolaning tuzilishi va o'lchamini o'zgartirgan xolda kamaytirish mumkin. Yuqoridagi formuladan kelib chiqadigan bo'lsak, n_2/n_1 nisbatni amaliy mumkin bo'lgan xolda saqlab, o'zak radiysini

kamaytirish yo'li orqali modalar sonini chegaralash mumkin. CHastota (n)ga bog'liq xolda modalar soni:

$$N = \frac{v^2}{2}$$

Agar, $n=2,405$ bo'lsa, u xolda bitta moda uzatiladi. Agar $n>2,405$ bo'lsa, unda bittadan ortiq moda uzatilishi mumkin. Uzatiladigan modalar soniga qarab optik tola bir modali va ko'p modaliga bo'linadi.

Optik tola turlari va ularning tavsiflari. Bir modali va ko'p modali optik tolalar. Pog'onali, gradient va maxsus sindirish ko'rsatkichli optik tolalar


To'liq uzunligiga nisbatan o'zak diametriga bog'liq ravishda optik tolalar bir modali va ko'p modaliga bo'linadi. Bir modali optik tolalarda ko'pincha o'zak diametri 7-10 mkm (1,a-rasm), ko'p modali optik tolalarda esa 50-62,5 mkm (1,b-rasm) bo'ladi. Ikkala turda qobiq diametri 125 mkm ni tashkil etadi. Amaliyotda ko'p modali va bir modali optik tola diametrlarining boshqa qiymatlari ham mavjud. Bir modali optik toladan faqat bir moda (yorug'lik tashuvchi) uzatiladi. Ko'p modali optik toladan esa apertura burchagi doirasida tolaga turli burchaklar ostida kiritiladigan bir necha yuzlab ruxsat etilgan modalarni bir vaqtda uzatish mumkin. Barcha ruxsat etilgan modalar turli tarqalish yo'li va vaqtiga ega. Ko'p modali optik tolalar sindirish ko'rsatkichi n bo'yicha pog'onali va gradient tolalarga bo'linadi. Pog'onali sindirish ko'rsatkichli ko'p modali optik tolalar ikki muhit chegarasida sindirish ko'rsatkichlarining keskin (pog'ona ko'rinishida) o'zgarishi (n_1 dan n_2 ga) bilan xarakterlanadi. Pog'onali sindirish ko'rsatkichli optik tolalar o'tkazish polosasini chegaralaydi, lekin gradient sindirish ko'rsatkichli optik tolalarga nisbatan arzon hisoblanadi.

Optik giroskoplari

Ular optik tolali va lazerli giroskoplarga bo'linadi. Faoliyat printsipi 1913 yilda kashf etilgan Sagnac effektiga asoslangan. Nazariy jihatdan, SRT yordamida tushuntiriladi. Yorug'lik tezligi har qanday inersial yo'nalishda o'zgarmasdir. Inertial bo'lmagan tizimda u c dan farq qilishi mumkin. Qurilmaning aylanish yo'nalishi bo'yicha va aylanish yo'nalishiga qarshi yorug'lik nurini

yuborayotganda, nurlarning kelishi vaqtidagi farq (interferometr tomonidan aniqlanadi) inertsiyadagi mos yozuvlar doirasidagi nurlarning optik yo'llarida farqni topishga imkon beradi va shuning uchun nurni o'tish paytida qurilmaning burchakli aylanish qiymati. Effektning kattaligi interferometrning burilish tezligi va interferometrda yorug'lik to'lqinlarining tarqalishi bilan bevosita mutanosibdir:

bu yerda turli yo'nalishlarda tarqaladigan nurlarning kelishi vaqtidagi farq, konturning maydoni, giroskopning burilish tezligi. Qiymat juda kichik bo'lgani uchun uni passiv interferometrlar yordamida to'g'ridan-to'g'ri o'lchash faqat tolasi uzunligi 500-1000 m bo'lgan tolali-optik girozlarda mumkin. Lazerli giroskopning aylanuvchi halqali interferometrda kontrpropagatsiya to'lqinlarining fazaviy siljishini o'lchash mumkin:



Gimbaldagi eng oddiy mexanik Giroskopning sxemasi

Giroskopning xususiyatlari qurilmalarda - giroskoplarda qo'llaniladi, uning asosiy qismi tez aylanadigan rotor bo'lib, u bir necha darajali erkinlikka ega (mumkin bo'lgan aylanish o'qlari).

Nazorat savollari.

1. Bir jinsli bo'lmagan muhit optikasi.
2. Optik nurtolalar.
3. Optik nurtolali aloqa tizimlari.
4. Optik nurtolali datchiklar.
5. Bir modali optik nur tolalar
6. Ko'p modali optik nur tolalar
7. Bir va ko'p modali optik nur tolalarning turlari

8. Optik nurlalarda nurlarning tarqalishi.
9. Optik tolali va lazerli giroskoplar
10. Giroskopning xususiyatlari

3-MAVZU. KVANT CHIGALLIK. KVANT TELEPORTATSIYA. KVANT INTERFERENSIYA. FOTONNI TELEPORTATSIYA QILISHGA MO‘LJALLANGAN EKSPERIMENTAL QURILMALAR. KVANT INTERNETI VA KVANT KOMPYUTERLARI.

REJA

1. Kvant chigallik. Kvant teleportatsiya.
2. Kvant interferentsiya fizik asoslari.
3. Fotonni teleportatsiya qilishga mo‘ljallangan eksperimental qurilmalar.
4. Kvant interneti va kvant kompyuterlari.

Tayanch iboralar: *Foton, lazer, fotonika, kvant texnologiya, kvant chigallik, kvant teleportatsiya. kvant interferentsiya fizik asoslari, fotonni teleportatsiya qilishga mo‘ljallangan eksperimental qurilmalar, kvant interneti va kvant kompyuterlari.*

Axborot nazariyasida signal eng asosiy tushuncha hisoblanadi. Boshqa fundamental tushunchalar kabi u formal tahriflarga tushmaudi. Vaziyatga bog‘liq ravishda **signal** qandadir voqelik, objekt xolati xaqida xabarni eltuvchi belgi, fizik jarayon yoki xodisa shuningdek, boshqarish sistemasidagi uzatilayotgan byuruqlar sifatida karaladi. Bu mavzuda signallarning asosiy xossalari, ularni uzatish va qauta ishlash printsiplariga oid qiziqarli texnologiyalar bilan tanishamiz.

Inson jamiyati doimo o‘zgarib turadigan va to‘ldiriladigan axborot dunyosida yashadi. Inson nimani ko‘radi, eshitadi, eslaudi, biladi, boshdan kechiradi, bular har xil ma'lumot shakllari.

SHuning uchun, keng mahnoda, **axborot**ni atrofimizdagi dunyo haqida ma'lumot to'plami sifatida aniqlash mumkin. Bu tushunishda axborot ilmiy-texnik taraqqiyot va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim manbai bo'lib, materiya va energiya bilan bir qatorda fanning fundamental falsafiy toifalariga kiradi.

"Axborot" tushunchalari (lotincha. *informatio* - tushuntirish, taqdim etish) va "xabar" endi chambarchas bog'liqdir. Mahnoga yaqin bo'lgan bu tushunchalar murakkab va sodda tushunchalar orqali aniq tahrif berish oson emas.

Axborot - bu har qandau voqea, hodisa yoki obyektlar haqidagi ma'lumotlar yoki ma'lumotlar to'plami, ya'ni atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlar to'plami.

Axborotni uzatish va saqlash turli xil **belgilar (simvollar)** yordamida amalga oshiriladi, bu ularni biron-bir shaklda taqdim etishga imkon beradi.

Xabar bu ma'lum bir ma'lumotlarni aks ettiradigan belgilar to'plamidir. Xabarlarini (va shunga mos ravishda ma'lumotni) masofadan uzatish har qandau moddiy vosita, masalan, qog'oz yoki magnit lenta yoki jismoniy jarayon, masalan, tovush yoki elektromagnit to'lqinlar, oqim va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

Signal bu uzatilgan xabarni aks ettiradigan (olib boradigan) jismoniy jarayon. Hozirgi vaqtda signal sifatida asosan elektr va optik signallari ishlatiladi. Elektronikada signal kompyuterining raqamli impulslaridan tortib VHF radio to'lqinlari tomonidan boshqariladigan impulslarga qadar bo'lgan hamma narsa bo'lishi mumkin. Signal o'z vaqtida xabarni uzatadi (kengaytiradi), ya'ni har doim vaqt funksiyasi. Signallar uzatilayotgan xabarga muvofiq jismoniy muhitning ma'lum parametrlarini o'zgartirish orqali hosil bo'ladi.

Xabarlar vaqt funksiyalari bo'lishi mumkin, masalan, telefon suhbatlarini uzatish pautida nutq, telemetrik ma'lumotlarni uzatish pautida harorat yoki bosim, televizorda uzatish pautida ishlash va boshqalar. Boshqa hollarda, xabar vaqt vazifasi emas (masalan, telegramma matni, harakatsiz rasm va boshqalar).

Xabarni signal vaqt bo'yicha yuboradi. SHuning uchun, xattoki xabar bo'lmasa ham (masalan, harakatsiz rasm), signal har doim **vaqt funksiyasidir.**

Diskret yoki diskret darajadagi (amplituda) signal bu kattalikdagi (amplituda) faqat ma'lum diskret qiymatlarni qabul qiladigan signaldir.

Uzluksiz yoki analog signal bu ma'lum bir qiymat oralig'idagi har qanday qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo'lgan signaldir.

Vaqtning ajratuvchi signal bu faqat ma'lum bir vaqtning o'zida berilgan signaldir.

Vaqt bo'yicha uzluksiz signal bu butun vaqt o'qida aniqlangan signaldir.

Masalan, nutq bu daraja va vaqt ichida uzluksiz bo'lgan xabardir va har 5 daqiqada uning qiymatlarini ko'rsatadigan harorat sensori uzluksiz kattalikdagi, ammo vaqt o'tishi bilan uzatiladigan xabarlarining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy kvant optika (fotonika) yorug'likning kvant tabiatini hisobga olgan holda materiya bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi. Foton aslida elektronning analogidir, elektronlar o'rniga elektromagnit ma'don kvantlari - fotonlar ishlatiladi. Zamonaviy kvant optika (fotonika) foton signallarni qayta ishlash texnologiyalari bilan shug'ullanadi.

Kvant chigallik. Kvant teleportatsiya. Kvant interferentsiya. Zamonaviy axborot uzatishning fizik asoslari


Zamonaviy dunyoda aloqa tizimlari bizning dunyomizni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Axborot uzatish kanallari turli xil axborot tarmoqlarini yagona global Internetga bog'lab, sauyoramizni tom mahnodan o'rab oladi. Zamonaviy texnologiyalarning g'aroyib dunyosi kvant dunyosining hauratlanarli imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan fan va texnikaning zamonaviy kashfiyotlarini o'z ichiga oladi. Axborotning mumkinki, bugungi kunda kvant texnologiyalari bizning hayotimizga qat'iy kirib bordi. Bizning cho'ntaklarimizdagi har qanday mobil qurilmalar kvant zaryad tunnel yordamida ishlaydigan xotira chipi bilan jihozlangan.

Ushbu qismda biz yorug'likning interferentsiyasini ko'rib chiqamiz va kvant texnologiyalaridan foydalangan holda tezkor ma'lumot uzatish uchun aloqa kanalini qurish usullarini tahlil qilamiz. Garchi ko'pchilik ma'lumotni yorug'lik


tezligidan tezroq uzatish mumkin emas deb hisoblasa-da, to'g'ri yondashuv bilan, hatto bundau vazifani hal qilish mumkin bo'ladi.

Kvant interferentsiya


Eng oddiy sxemadan boshlaulik (bu shunchaki o'rnatish sxemasi emas, balki tajribaning sxematik ko'rinishi).



Biz lazer nurini shaffof ounaga (PP) yo'naltiramiz. Odatda, bundau ouna ustidagi yorug'lik hodisasining yarmini aks ettiradi, qolgan yarmi o'tadi. Ammo kvant noaniqlik holatida bo'lgan fotonlar shaffof ounaga tushib, ikkala yo'nalishni bir vaqtning o'zida tanlashadi. Keuin har bir nur ekranga (1) va (2) ko'zgu bilan aks ettiriladi, bu erda biz interferentsiyani kuzatamiz. Hammasi oddiy va tushunarli: fotonlar to'lqin kabi harakat qilishadi.



Endi fotonlar yuqori yoki pastki qismida qandau yo'l bosib o'tganligini tushunishga harakat qilaulik. Buning uchun har bir yo'lda daun–konvertorlarni (**DK**) qo'yamiz. Daun–konvertor - bu bitta foton unga kirganda, chiqish pautida 2 ta foton (har biri yarim energiya bilan) chiqaradigan qurilma, ulardan biri ekranga (*signal fotoni*), ikkinchisi esa detektorga (3) yoki (4) tushadi (*bo'sh foton*). Detektorlardan mahlumotlarni olgach, har bir foton qausi yo'ldan yurganini bilib olamiz. Bunday holda, interferentsiya tasviri yo'qoladi, chunki biz fotonlar aniq qauerdan o'tganini aniqladik va kvant noaniqlikni buzdik.




Bundan tashqari, biz tajribani biroz murakkablashtiramiz. Har bir “bo’sh foton”ning yo'lida qautaruvchi ko'zgularni joulashtiramiz va ularni ikkinchi yarimshaffof ko'zguga (diagrammadagi manbaning chap tomoniga) yo'naltiramiz. Ikkinchi yarimshaffof ounaning o'tishi “bo'sh foton”larning traektoriyasi to'g'risidagi mahlumotlarni yo'q qiladi va interferentsiyani tiklaudi (Max TSender interferometrining sxemasiga muvofiq). Detektorlardan qausi biri ishlamasligidan qathi nazar, biz fotonlar qausi yo'lni bosib o'tganligini aniqlau olmaumiz. Ushbu murakkab sxema yordamida biz yo'lni tanlash haqidagi mahlumotlarni o'chirib tashlaumiz va kvant noaniqligini tiklaumiz. Natijada ekranda interferentsiya paudo bo'ladi.

Agar biz ko'zgularni siljitishga qaror qilsak, unda "bo'sh" fotonlar yana detektorlarga (3) va (4) tushadi va biz bilamizki, interferentsiya ekranda yo'qoladi.

Bu shuni anglatadiki, ko'zgularning o'rnini o'zgartirib, biz ekrandagi rasmni o'zgartirishimiz mumkin. SHundau qilib, siz ikkilik ma'lumotlarini kodlash uchun undan Foydalanishingiz mumkin.

Siz eksperimentni biroz soddalashtirishingiz va "bo'sh" fotonlar yo'lida shaffof o'ynani harakatlantirish bilan bir xil natijaga erishishingiz mumkin.



Kvant teleportatsiya

Kvant teleportatsiya - bu kvant xolatini fazoning bir nuqtasidan boshqasiga bir zumda olib o'tilishi bo'lib, bunda ular qanday masofada joulashganligi ahamiyatsizdir.



Kvant teleportatsiya xodidasida A zarrachaning xossalari undan uzoqlashgan xuddi shundau B zarrachaga nusxasi olinadi.

Bundau samaraga ega bo'lish uchun ikkita zarrachani bir biriga chalkashtirish kerak bo'ladi – yahni ularni bir biriga bog'lash zarur bo'ladi, u xolda birining foton spini musbat tomonga aulansa, ikkinchisniki manfiy tomonga aulanadi, bu esa axborot bitlarini oniy tezlikda uzatilishiga imkon yaratadi.



Ya'ni kvant teleportatsiya zarracha (atom, foton) xaqidagi axborotni boshqa zarrachaga ko'chish usulidir. SHundau xolatlaridan biri kvant chigallik deyiladi. Haqiqatdan esa bu chigallik emas, balki bog'lanish bo'lib, u ularni ixtiyoriy masofada bir biriga bog'langan qiladi.

SHOTlandiya olimlari fizik holati noaniq bo'lgan pautda, “chigal” fotonlarning dunyodagi birinchi tasvirini olishdi. Tadqiqot *Science Advances* -da nashr etilgan.

Kvant “chigallik” - bu bir necha zarralarning kvant holatlari ular orasidagi masofadan qathi nazar o'zaro bog'liq bo'lgan hodisadir. Ushbu hodisa kvant teleportatsiyasi, kriptografiya va kompg'yuter texnologiyalarida qo'llaniladi. Eunshteun va uning hamkasblari, agar kvant mexanikasi voqelikni to'liq aks ettirsa, bog'lab qo'yilgan tizimning bir qismi holatini bilish avtomatik ravishda boshqa qismning holatini aniqlashini ko'rsatishgan. Aniqlanishicha, bu holda mahlumot yorug'lik tezligidan tezroq uzatiladi, bu klassik fizika qonunlariga binoan imkonsizdir.

"Kvant chigalligi" kvant mexanikasi tenglamalaridan kelib chiqadigan nazariy farazdan paydo bo'ldi. Bu shuni anglatadiki: agar 2 ta kvant zarralari (ular elektronlar, fotonlar bo'lishi mumkin) o'zaro bog'liq bo'lib chiqsa (chalkash), u

holda ular koinotning turli qismlariga olib borilgan bo'lsa ham, aloqa saqlanib qoladi.

Kvant chigalligining kashf etilishi teleportatsiyaning nazariy imkoniyatini ma'lum darajada tushuntiradi.

Agar siz bir vaqtning o'zida bir nechta fotonlarni olsangiz, u holda ular bog'lanadi (chaqaloq). Va agar siz ulardan birining spinini o'lchasangiz va u ijobiy bo'lib chiqsa, ikkinchi fotonning spini - ishonch hosil qiling - bir zumda salbiy bo'ladi. Va teskari.


Demak, keyin **aylanish** kvant zarrasi (elektron, foton) o'zining burchak momenti deb ataladi. **Spin vektor sifatida, kvant zarrasining o'zi esa mikroskopik magnit sifatida ifodalanishi mumkin.** Hech kim kvantni, masalan, elektronni kuzatmasa, u bir vaqtning o'zida barcha spin qiymatlariga ega ekanligini tushunish muhimdir. **Kvant mexanikasining ushbu asosiy tushunchasi "superpozitsiya" deb ataladi.**

Tasavvur qilinsa, bizning elektroningiz bir vaqtning o'zida soat yo'nalishi bo'yicha va soat sohasi farqli ravishda aylanadi. Ya'ni, u bir vaqtning o'zida ikkala aylanish holatida (aylanish vektori / pastga aylanish vektori). Taqdim qildingizmi? Ammo kuzatuvchi paydo bo'lishi va uning holatini o'lchashi bilan elektronning o'zi qaysi spin vektorini - yuqoriga yoki pastga tushishini aniqlaydi.


Elektronning spini qanday o'lchanganini bilmoqchimisiz? U magnit maydonga joylashtirilgan: spini maydon yo'nalishiga qarshi, spini esa maydon yo'nalishi bo'yicha bo'lgan elektronlar turli yo'nalishlarda burilib ketadi. Fotonlarning spinlari ularni polarizatsiya filtriga yo'naltirish orqali o'lchanadi. Agar fotonning spini (yoki polarizatsiyasi) "-1" bo'lsa, u filtrdan o'tmaydi, agar "+1" bo'lsa, u holda o'tadi.

Shunday qilib, bitta elektronning holatini o'lchab, uning spini "+1" ekanligini aniqlaganingizdan so'ng, u bilan bog'langan yoki "chaqalangan" elektron "-1" spin qiymatini oladi. Va bir zumda, hatto u Marsda bo'lsa ham. Garchi 2-elektron holatini o'lchashdan oldin, u bir vaqtning o'zida ikkala spin qiymatiga ham ega edi (" +1" va "-1").

Matematik jihatdan isbotlangan bu paradoks Eynshteynga juda yoqmagan. Chunki u yorug'lik tezligidan katta tezlik yo'q degan kashfiyotiga qarshi chiqdi. Ammo chigallashgan zarralar tushunchasi isbotlandi: agar chigal zarralardan biri Yerdada, ikkinchisi Marsda bo'lsa, 1-zarracha uning holatini bir zumda o'lchaydi (tezroq tezlik yorug'lik) 2-zarrachaga qanday spin qiymatini olishi kerakligi haqida ma'lumot beradi. Ya'ni: qarama-qarshi ma'no.




Kvant mexanikasida zarralar bir vaqtning o'zida kosmosda mahlum bir pozitsiyaga ega bo'lmagan to'lqinlardir. Kuzatuvchi paudo bo'lgandan keuingina tizim bitta aniq kvant holatini qabul qilishi kerak. Buzilgan zarralar, ular orasida ming kilometrdan ko'proq masofa bo'lsa ham, bir-birlarining tanlov holatiga tahsir qiladi.




Bellning tengsizligi buzilganligini isbotlagan tajribalar allaqachon bir necha bor o'tkazilgan bo'lib, asosan fotonlarning polarizatsiyalari, lekin bahzan

elektronlarning aulanishlari bilan mos kelishini tekshirdi. Ushbu ishda olimlar aulanayotgan yorug'lik fotonlarining orbital burchak momentida tengsizlik buzilganligini tasdiqlovchi dalillarni vizual ravishda vizualizatsiya qilish uchun moslama uig'ishga muvaffaq bo'lishdi.

Pol-Antuan Mour va Glazgo universiteti hamkasblari fazoviy yorug'lik modulyatori rolini o'ynagan va fotonlarning fazasini o'zgartirgan syuuq kristall orqali yo'naltirilgan "chigal" fotonlar juftlarini ajratishdi, ikkinchisi esa to'g'ridan-to'g'ri detektorga tushdi. Kamera, ular fazoda bir-biridan ajratilgan bo'lsa ham, bir xil o'zgarishlarni boshdan kechirgan pautda barcha fotonlarning rasmlarini suratga oldi. Yahni, kvant "chigallik" pautida.



Eksperimental qurilma sxemasi. *Pastki chap burchakda kristalda hosil bo'lgan "chigal" fotonlar ikkita nurga bo'lingan. Birinchisi filtrlardan, keuin detektorga o'tadi. Ikkinchi nur darhol detektorga uriladi. Fyurer tekisligi ko'k, rasm tekisligi esa sariq rangda. (Payl-Antoine Moreay et al., / Science Advances, 2019)*



To'rt xil filtdan o'tgan bog'lab qo'yilgan fotonlarning juftliklarining interferentsiyasi tasviri.

O'ta sezgir kamera bitta fotonlarni suratga olishga va suratga faqatgina bir vaqtning o'zida bir juft fotonlar detektorlarga tushgan pautda olindi. To'rt xil filtdan o'tgan juftlarning to'rtta alohida rasmlaridan tashqari, ish mualliflari fazani o'zgartirishning barcha to'rtta variantini o'z ichiga olgan bitta fotosuratni olishdi.

Tajriba natijalari kvant fenomeni tasvirlarini olish texnologiyasini ishlab chiqishga turtki beradi, bu esa o'z navbatida olimlarni ushbu jarayonlarni tushunish va kelgusida qo'llashga yaqinlashtiradi.

Kvant optikasiga tegishli ba'zi tushunchalar bilan tanishib olamiz:

Kvant holati – kvant sistemasi bo'lishi mumkin bo'lgan barcha xolatlar

Holat vektori - kvant sistemasini to'liq tavsif qiladigan matematik kattaliklar uig'indisi (koordinata, spin, impulg's ...).


Toza holat – bitta holat vektori bilan tavsif qilinishi mumkin bo'lgan holat (bitta to'lqin funktsiyasini topish etarli).

Aralash holat – bitta holat vektori bilan tavsif qilinishi mumkin bo'lmagan va zichlik matritsasini talab qiladigan holat

Toza holat bo'lishi uchun sistema yopiq (tashqaridan izolyatsiya qilingan) bo'lishi shart. Aks holda tashqi o'rov holat vektorlari bilan tahsirlashuvni hisobga olish kerak bo'ladi.

Toza holat bir qancha o'z holat vektorlariga ega podsistemalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Bu holatda butun sistema mustaqil podsistemalarga ajratilishi mumkin. Bunday sistemaning holati ajratiluvchi (separable) holat deyiladi.


Yorug'likning korpuskulyar to'lqin dualizmi



Yorug'lik to'lqin - ikki detektor bir vaqtda qabul qilishi kerak.

Yorug'lik zarra – yoki to'g'ridagi yoki tepadagi detektorga borishi kerak

Ko'p xollarda kvant optikasidagi jarayonlarni geometrik optikausullarini matritsalar ishlatish bilan birgalikda tavsiflasha bo'ladi¹. Biror optik elementga tushayotgan nurni kuramiz. U xolda paraksial yakinlashishda nur vektorini ikki o'zgaruvchi bilan ifodalasa bo'ladi, $r(z)$ -radial siljish va θ –burchak siljish. Paraksial yakinlashishda $\sin \theta \approx \text{tg } \theta \approx \theta$.



Quyudagicha belgilash kiritamiz $\theta_1 \approx (dr_1/dz)_{z_1} = r'_1$ va $\theta_2 \approx (dr_2/dz)_{z_2} = r'_2$, va u xolda


$$\begin{aligned} r_2 &= Ar_1 + Br'_1, \\ r'_2 &= Cr_1 + Dr'_1, \end{aligned}$$

bu erda A, B, C, D optik qurilmani xarakterlovchi kattaliklar. Olingan sistemani matritsa ko'rinishida yozamiz

¹ David L. Andrews. Fundamentals of Photonics and Physics. Published by John Wiley & Sons. Inc., Hoboken, New Jersey.

$$\begin{vmatrix} r_2 \\ r_2' \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} A & B \\ C & D \end{vmatrix} \begin{vmatrix} r_1 \\ r_1' \end{vmatrix},$$

Yuqoridagi $ABCD$ - matritsa optik elementni paraksial yaqinlashishda turaligicha ifodaladi. Misol uchun nurning biror n sindirish ko'rsatgichli muxitda z masofaga tarkalishini ko'ramiz.




U xolda

$$\begin{aligned} r_2 &= r_1 + Lr_1'/n, \\ r_2' &= r_1' \end{aligned}$$

va unga mos keluvchi matritsa ko'rinishi

$$\begin{vmatrix} 1 & L/n \\ 0 & 1 \end{vmatrix}.$$

Yana bir misol eg'uvchi linza




Linza uchun nurning kuchish matritsasi quyidagicha yoziladi

$$\begin{vmatrix} 1 & 0 \\ -1/f & 1 \end{vmatrix}.$$

Istalgan murakkablikdagi optik sistemani elementar tashkil etuvchilarga bo'lib xar biri uchun aloxida matritsa tuzish mumkin va butun sistemaning matritsasi shu matritsalar ko'pautmasidan iborat bo'ladi. Matritsalar yordamida nafaqat nurning tarqalishini ifodalash mumkin, balki sferik to'lqin tarkalishini ham ifodalasa bo'ladi.

Matrik optika apparatini qullanishining yana bir misoli Fabri Pero intenferometri,



Fabri Pero interferometri lazer kurilmalarida rezonator rolini bajaradi. Kuchautiriladigan yorug'lik kundalang kesimidagi intensivlik taksimoti ko'p xollarda Gauss taqsimotiga ega (gauss dastalari). Gauss dastalarini xarakterlash uchun kompleks q parametr kiritamiz,

$$1/q = 1/R - i\lambda/\pi\omega^2.$$

Bu erda, R – dasta to'lkini fronti egrilik radiysi, ω – intensivlik taxsimoti zichligi.

Bu parametr odatda kompleks egrilik radiysi ham deb ataladi.

Biror $ABCD$ matritsa bilan ifodalanadigan optik sistemaning kirishiga q_1 kompleks parametrli gauss dastasi tushsa u xolda shu sistema chiqishidagi dastaning q_2 kompleks parametri

$$q_2 = \frac{Aq_1 + B}{Cq_1 + D}.$$

Bu qonun gauss dastasi tarkalishidagi $ABCD$ qonuni deb ataladi.

Nazorat savollari

1. Signal nima?
2. Axborot nima?
3. Xabar nima?

4. Uzluksiz yoki analog signal nima?
5. Yorug'lik nurlatgichlari. Nurlanishlarning spektral zichligi xaqida tushuncha.
6. Nurlanish turlari, issiqlik va lyuminestsent nurlanish.
7. Yarim o'tkazgichlarda nurlanishning ichki va tashqi kvant chiqishi.
8. Yarim o'tkazgichli svetodiodda nurlanish xosil qilishda katnashuvchi o'tishlar.
9. Taqiqlangan zona kengligi va nurlanish chastotasi orasidagi bog'lanish.
10. Spontan va majburiy nurlanish.
11. Lazer nurlanishi va uni boshqa manbalar nurlanishidan farqi.
12. 3 - energetik satxli sistemada generatsiya xosil qilish shartlari.
13. 4 - energetik satxli sistemada generatsiya xosil qilish.
14. Turli aktiv elementli lazerlarning nurlanish xarakteristikalari.
15. Yarim utkazgichli lazerlar tuzilishi va ularni xarakteristikalari.
16. Kvant chigallik nima?
17. Kvant internet nima?
18. "CHigal" fotonlar qandau hosil qilinadi?
19. Kvant chigallikni tasvirga olish mumkinmi?

**4-MAVZU. KREMNIYLI FOTONIKA. NANOSKOPIYA.
NANOFOTONIKA. BIR FOTONLI NURLANISH MANBALARI.**

Reja:

1. Kremniyli fotonika.
2. Nanoskopiya.
3. Nanofotonika.
4. Bir fotonli nurlanish manbalari.

Tayanch iboralar: fotonika, kremniyli fotonika, nanoskopiya, nanofotonika, bir fotonli nurlanish manbalari.


Fotonika asosan elektronlar o'rniga elektromagnit maydon kvantlaridan — fotonlardan foydalanadigan elektronikaning analogidir. Fotonik signallarni qayta ishlash texnologiyalari energiya yo'qotilishini va qurilmalar hajmini kamaytirishga imkon beradi

Shunday qilib, fotonika: ko'rinadigan va yaqin ko'rinadigan spektrda fotonlarni yaratish, nazorat qilish va aniqlashni o'rganadi. Jumladan, ultrabinafsha (to'lqin uzunligi 10...380 nm), uzok infraqizil (to'lqin uzunligi 15...150 mkm), bunda bugungi kunda faol rivojlanmoqda kaskad lazerlar.

Optik signallarni boshqarish va o'zgartirish bilan shug'ullanadi va optik tolalar orqali ma'lumot uzatishdan tortib, atrof-muhitdagi eng kichik o'zgarishlarga ko'ra yorug'lik signallarini modulyatsiya qiluvchi yangi sensorlarni yaratishgacha bo'lgan keng qo'llanmalarga ega.


Fotonika optik, elektro-optik va optoelektronik qurilmalarning keng doirasini va ularning turli xil ilovalarini qamrab oladi. Fotonikani o'rganish sohalariga tolali va integral optika, jumladan, chiziqli bo'lmagan tika, yarimo'tkazgichli birikmalar fizikasi va texnologiyasi, yarimo'tkazgich lazerlari, optoelektronik qurilmalar, yuqori tezlikdagi elektron qurilmalar kiradi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, yangi, umumlashtirilgan „fotonika“ atamasi asta-sekin „optika“ atamasini almashtirmoqda.

Kremniy fotonikasi - bu ikki guruh texnologiyalar - elektronika va optikaning sinergiyasi bo'lib, u millimetrdan minglab kilometrgacha bo'lgan masofalarda ma'lumotlar uzatish tizimini tubdan o'zgartirish imkonini beradi. Ahamiyatiga ko'ra, kremniy fotonikasining joriy etilishi natijasi yarimo'tkazgichlar ixtiroi bilan taqqoslanadi, chunki uni amalga oshirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lgan Mur qonunining ta'sirini uzoq yillar davomida saqlab qolish imkonini beradi. .



Аn'naviy ma'lumotlar markazi arxitekturasi va kremniy fotonikasi yordamida dizayn o'rtasidagi farq

Аgar biz o'zimizni hisoblash uchun amaliy dasturlar bilan cheklasak, elektronikada bo'lgani kabi, optika va qattiq jism fizikasini ham chetga surib qo'yish mumkin. Tizim darajasida tushunish uchun mavzu haqida eng yuzaki ma'lumotlar etarli. Ko'rinishidan, hamma narsa aniq: elektr signallarining ketma-ketligi transmitter T tomonidan optik signallar ketma-ketligiga aylantiriladi. U kabel bo'ylab qabul qiluvchi R ga boradi, bu ularni elektr shakliga qaytaradi. Yorum'lik manbalari sifatida bir nechta turdagi lazerlardan foydalanish mumkin va uzatish uchun bitta yoki multimodal kabellardan foydalanish mumkin.



Signal uzatish sxemasi

Ammo kremniy fotonikasi tamoyillarini amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarning ilmiy va muhandislik murakkabligini unutmasligimiz kerak. Bu yoʻnalishdagi birinchi eksperimental ishlar 20-asrning 80-yillari oʻrtalariga toʻgʻri kelganligi, tijoratni rivojlantirishga urinishlar 2000-yillarning boshlarida amalga oshirilganligi va birinchi tijorat natijalari faqat 2016-yildan keyin olinganligi bilan baholanishi mumkin. Qirq yil... Optik tolali aloqalardan amaliy foydalanish 60-yillarning oʻrtalarida boshlangan boʻlsa-da, eksperimental ishlar esa ancha oldinroq boshlangan.

Kremniy asosidagi materiallar bilan bogʻliq muammoning mohiyati ularning optik tolali optikada qoʻllaniladigan bir xil chastotalarda ishlay olmasligi va muqobil materiallardan foydalanish iqtisodiy sabablarga koʻra amalda imkonsizdir. Mavjud yarimoʻtkazgichlarni ishlab chiqarish texnologiyalariga katta sarmoyalar kiritildi. Kremniy fotonikasi tamoyillarini amalga oshirish uchun ularni mavjud texnologiyalarga moslashtirish kerak. Mikroshemalarga miniatyura qabul qiluvchilar va transmitterlarni kiritish va ular orasiga mos keladigan toʻlqin oʻtkazgichlarni joylashtirish yechim boʻlishi mumkin. Bu murakkab muhandislik vazifasi boʻlib, 2017 yildan boshlab hal qilindi.

Kremniyli fotonika texnologiyalari allaqachon 100 Gbit chekilgan va yaqin kelajakda 400 Gbit va 1 Tbit yaratish imkonini beradi. Bunday maʼlumotlar almashinuv kurslari zamonaviy arxitekturalarni sifat jihatidan yangilariga - RSA (Rack-Scale Architecture) raf darajasida va ESSA (Kengaytirilgan miqyosdagi tizim arxitekturasi) maʼlumotlar markazi darajasida yaqinlashishi uchun imkoniyatlar ochadi. Birinchisining chegarasi pod deb ataladigan (bir yoki bir nechta raftlar) bilan cheklangan, ikkinchisi butun maʼlumotlar markazini qamrab oladi. Ushbu infratuzilmalarning komponentlari masofadan PCIe avtobusi orqali aloqa qiladi (masofadagi PCIe-avtobus oʻzaro bogʻlanadi).


Kremniy fotonikasi yordamida 4 darajaga boʻlingan ierarxik aloqa tizimi yaratiladi:

1-darajali "Chip": kremniy fotonik texnologiyalarni chip ichida amalga oshirish bir necha sabablarga koʻra qiziqarli:

Bunda ko'proq chiplar mavjud, shuning uchun qabul qiluvchilar va transmitterlarga bo'lgan ehtiyoj katta va bu texnologiyalar tez rivojlanadi.


Chipdan tashqari aloqa tezligi sezilarli darajada oshadi, shuning uchun tizimni loyihalash tamoyillari sezilarli darajada o'zgarishi mumkin.

Uzoq muddatda, optik aloqalarni chip komponentlari o'rtasida, masalan, yadrolar o'rtasida almashish uchun foydalanish mumkinligini tasavvur qilish mumkin. Ammo bunday qisqa masofalarda mis uzoq vaqt davomida o'z pozitsiyasini saqlab qoladi




2-darajali "Platforma": Ma'lumotlar markazlarini yig'ish platformasi an'anaviy 19 dyuymli tokchalar yoki ulardan pods (inglizcha pod - qobiq, konteyner, raketa dvigatellarini yig'ish) deb ataladigan yig'ilishlar bo'lishi mumkin. Platformalar yig'iladigan atomlar individual chiplarga aylanadi; serverlar va klassik anakartlar kabi komponentlar o'tmishda qoladi. Serverlardan platformalarga o'tish server deaggregatsiyasi deb ataladi, unga alohida TAdviser nashri bag'ishlangan.

3-daraja "Ma'lumotlar markazi": ma'lumotlar markazi darajasiga disaggregatsiyani yanada oshirish kremniy fotonikasi diapazonini 500 metrdan 10 kilometr gacha bo'lgan masofaga oshirish orqali mumkin bo'ladi.



Ma'lumotlar markazini yagona hisoblash ob'ekti sifatida ko'rib chiqish mumkin va unda talabga binoan serverlar yig'ilishi mumkin.

4-darajali "Telekom": Uzoq masofalarga va shahar muhitida (metro) ma'lumotlarni uzatishda optika uzoq vaqtdan beri muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Kremniy fotonikasidan foydalanish hech qanday radikal o'zgarishlarga olib kelmaydi, lekin ehtimol samaradorlik va sifat oshadi.



So'nggi paytgacha optikada mumkin bo'lgan chegara optik asboblarning o'lchamlari uchun asosiy Reyli mezon bilan belgilanadi, deb hisoblar edi, bu farqlanadigan ob'ektning minimal o'lchami to'lqin uzunligidan bir oz kamroq bo'lishidan iborat. ishlatiladigan yorug'lik (yo'naltiruvchi radiatsiya to'lqinining yarim davri (ko'rinadigan diapazon uchun to'lqin uzunligi 0,2-0.7 mkm yoki 200-700 nm)) va asosan radiatsiya diffraksiyasi bilan cheklangan. Biroq, 10 nm

ruxsatga ega bo'lgan nanoskop optik tizimining so'nggi ishlanmasi optik mikroskopiya - nanoskopiya diapazonini yorug'lik to'lqin uzunligidan kichikroq bo'lgan o'nlab nanometrlarga kengaytirdi.

Nanoskopiya - Nanoob'ektning tasvirini olish, uning xususiyatlarini o'rganish va aniqlash (o'lchash) imkonini beradigan usullar, o'lchash va kuzatish asboblari majmui.

Nanoskopiyaning qo'llash doirasi

Inson tanasini tashkil etuvchi oqsil molekulalarini o'rganish 3 dan 10 nm gacha. Agar shunday nanoskop yaratilsa, oqsil molekulalarini to'g'ridan-to'g'ri "jonli" kuzatish, ularning alohida atomlarini ko'rish mumkin bo'ladi, bu ularning 3D tuzilishini ochish imkonini beradi.

Nanofotonika yorug'likning nanometr shkalasidagi "xulq-atvori" va yorug'likning nanometr miqyosdagi ob'ektlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi va klassik dielektrik qurilmalarga qo'shimcha ravishda, odatda yorug'likni o'tkazish va fokuslash imkonini beruvchi metall komponentlarni o'z ichiga oladi.

Nanofotonika fotonikaning bir bo'limi bo'lib, fotonlar nanometr o'lchamdagi jismlar bilan o'zaro ta'sirlashganda yuzaga keladigan fizik jarayonlarni o'rganadi.

Nanofotonika, shuningdek, elektromagnit nurlanishni yaratish, kuchaytirish, modulyatsiya qilish, uzatish va aniqlash uchun nanostrukturali qurilmalar va bunday qurilmalarga asoslangan qurilmalarni ishlab chiqarish arxitekturasi va texnologiyalarini ishlab chiqishni o'rganadi. Nanostrukturali qurilmalarning ishlashini belgilovchi va fotonlarning nano-o'lchamdagi ob'ektlar bilan o'zaro ta'sirida yuzaga keladigan fizik hodisalar ham o'rganiladi.

Nanofotonikaning maqsadi eng yangi optik xususiyatlarga ega nanometr o'lchamlari (1-100 nm) bo'lgan materiallarni ishlab chiqish va ular asosida fotonik qurilmalarni yaratishdir. Hozirgi vaqtda nanofotonika zamonaviy elektronikaga muqobil sifatida qaralmoqda [manba 1828 kun ko'rsatilmagan]. Ma'lumotni uzatish va qayta ishlashda fotonlardan foydalanish [manba ko'rsatilmagan 1828 kun] fotonik aloqa kanallarining yuqori tezligi va shovqinlarga chidamliligi tufayli sezilarli afzalliklarga erishadi. Nanofotonik qurilmalarga o'lchamlari 100 nm yoki

undan kam bo'lgan tuzilmalarni ishlatadigan qurilmalar kiradi. Bunday qurilmalar ko'plab optik tizimlarni miniatyuralashtirish muammolarini hal qiladi.

Nanofotonik qurilmalar nafaqat elektron hamkasblaridan sezilarli darajada ustundir [manba 1828 kun ko'rsatilmagan], balki issiqlik ishlab chiqarish va elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. Nanofotonikaga asoslangan qurilmalardan foydalanishda zaif nuqta va doimiy tashvish manbai elektr signallarini optik signallarga va aksincha aylantirish imkonini beruvchi elektro-optik kalitlarning ishonchliligi bo'lib qolmoqda.

Kremniy nanofotonika mahsulotlari juda kichik, shuning uchun ularning ko'pchiligini elektron chiplarga osongina kiritish mumkin. Hozirgi vaqtda ko'plab optik nanoqurilmalar standart yarimo'tkazgichli elektronika materiallaridan ishlab chiqarilishi mumkin, shuning uchun nanofotonika birinchi navbatda elektron va fotonik komponentlar (masalan, fotonik integral sxema) [1], ikkalasining afzalliklaridan foydalangan holda ishlab chiqilmoqda.

Nanofotonikada kremniyning kristalli gofretlarini izolyatorlarda qo'llash imkoniyati, agar kremniy elektronika texnologiyasi haqida o'ylaydigan bo'lsak, katta ahamiyatga ega. Bunday materiallar asosida yaratilgan fotonik nanoqurilmalar ishlab chiqarishga tez tatbiq etilishi haqida gapirmasa ham, mavjud tizimlarga osonlikcha integratsiya qilinishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Kremniyli fotonika.
2. Kremniyli fotonika nima imkonini beradi?
3. Kremniy fotonikasining ahamiyati nimadan iborat?
4. Kremniy asosidagi materiallar bilan bog'liq muammoning mohiyati nimada?
5. Kremniy fotonikasi yordamida qanday ierarxik aloqa tizimi yaratiladi?
6. Nanoskopiya nima?
7. Nanofotonika.
8. Bir fotonli nurlanish manbalari.

IV. AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU 1. NURLANISH MANBALARI. FOTOELEMENTLAR.

NURDIOD

Reja

1. Fotoelementlar haqida tushincha
2. Fotodiodlar to'g'risida malumotlar
3. Tunelli fotodiodlar
4. Nurdiodlar. Nurdiodlar uchun materillar. Nurdiodlar uchun kvant effektivligini oshirish usullari

Kirish optik signallarni elektr signallariga aylantirish uchun fotoqabulqilgichlar qo'llaniladi. So'ng bu signallar fotoqabulqilgichni elektr qurilmalarida kuchaytiriladi va qayta ishlanadi. Bu maqsadlar uchun qo'llaniladigan fotoqabulqilgichlar talab etiladigan polosa kengligiga, dinamik diapazonga, sezgirlikka, tola bilan puxta bog'lanish uchun etarli o'lchamga ega bo'lishi, tashqi muhit o'zgarishlariga sezgir bo'lmasligi, xizmat muddati esa yuqori bo'lishi kerak. Bu talablarga yarim o'tkazgichli fotodiodlar (FD) to'liqroq javob beradi.

Foto qabul qilgich priyomniklar (fotopriyomnik) larning ishlash prinsiplari quyidagi uch prinsipdan foydalanishga asoslangan: a) fotogalvanik effekt; b) fotorezistiv effekt (ichki fotoeffekt); v) ichki kuchaytirish.

Nobirjinsli yarimo'tkazgichlarda o'tkazuvchanlikning o'zgarishidan tashqari potentsiallar farqi ham (foto-EYUK) paydo bo'ladi. Fotogalvanik effekt deb atalgan bu hodisaning sababi shundaki, yarimo'tkazgichlar bir tomonli o'tkazuvchanlikka ega bo'lgani uchun o'tkazgich hajmidagi optik jihatdan uyg'otilgan va manfiy zaryadga ega bo'lgan elektronlar o'z elektronlarini yo'qotgan atomlar yaqinida paydo bo'ladigan va musbat zaryadga ega bo'lgan kovaklardan fazoviy ajratiladi. Elektron va kovaklar yarimo'tkazgichning qarama-qarshi uchlarida yig'iladi, natijada elektr yurituvchi kuch vujudga kelib, tashqi EYUK berilmasa ham yoritilgan yarimo'tkazgichga parallel ulangan yuklama

qarshilik (nagruzka) orqali elektr toki o'ta boshlaydi. Shu tarzda yorug'lik energiyasi elektr energiyasiga bevosita aylantiriladi. Xuddi shu sababli yorug'likning fotogalvanik qabul qilgichlari yorug'lik signallarini qayt qilish uchungina emas, balki elektr zanjirlarida elektr energiyasi manbai sifatida ishlatiladi. Shuning uchun ushbu effekt quyosh elementlarida ishlatiladi.


Fotoelementlar, fotorezistorlar. Ichki fotoeffektga asoslangan va fotoo'tkazuvchanlik hodisasidan foydalanadigan birinchi fotoelement 1875 yilda yasalgan edi. Garchi ichki fotoeffekt hodisasi tashqi fotoeffekt hodisasidan 50 yil ilgari kashf etilgan bo'lsa-da, tashqi fotoeffekt asosida ishlaydigan fotoelementlar ichki fotoeffekt asosida ishlaydigan fotoelementlarga qaraganda oldinroq rivojlandi. XX asrning qirquinchi yillarida yarimo'tkazgichlar fizikasi tez rivojlangani va ichki fotoeffekt hodisasi chuqur o'rganilgani sababli yarimo'tkazgichli yangi fotoelementlar yaratila boshlandi.

Ichki fotoeffektga asoslangan fotoelementlarni yarim o'tkazgichli fotoelementlar yoki fotoqarshiliklar deb ataladi. Yarim o'tkazgichli fotoelementlarning fotosezgirligi vakuumli fotoelementlarning sezgirligidan yuzlarcha marta oshiq. Ba'zi fotoelementlar yaqqol ifodalangan spektral sezgirlikka ega.

Fotodiodlar – ikkita chiqishga ega bo'lgan fotoelektr asbob bo'lib, uning ishlash prinsipi teskari ulangan elektr o'tishda fotogalvanik effektini ishlatishga asoslangan. Uning elektr o'tishi fotodiod rejimida ishlaydi. Ular radioelektronikada optik qabul qilgichlarning va tolali optik aloqa liniyalarida qabul qiluvchi modullarning va shunga o'xshashlarning tez harakatlanuvchi sezgir elementlar sifatida ishlatiladi.

Agar aralashma materialli p - va n -turdagi yarim o'tkazgichlar birlashtirilsa, elektronlar diffuziyasi p -turdagi yarim o'tkazgichda, kovaklar diffuziyasi esa n -turdagi yarim o'tkazgichda yuz beradi. Bunda kontakt maydon zaryad tashuvchilari kam bo'lgan, juda ingichka aktiv qatlam hosil bo'ladi. Yarim o'tkazgichlarga (7.1-rasm) kontakt diffuzion maydon Edif

yo`nalishiga mos keladigan tashqielektr maydon Etash berilganda aktiv soha kengayadi. Bu p – n tishning teskari siljish holatiga mos keladi [4].



Teskari siljishli p – n o`tishga $h \cdot \nu$ energiyali fotonlar uch holatda yutilib, elektron kovak juftligini hosil qilishi mumkin: 1. aktiv sohada yutilish; 2. p -sohada yutilish; 3. n -sohada yutilish.

Birinchi holatda elektron-kovak juftligi aktiv sohada hosil bo`ladi va kuchli elektr maydon ta`siri natijasida juftliklar bo`linib, elektronlar n -sohaga, kovaklar p -sohaga harakat qiladi. Tashuvchilarni harakati natijasida R_{yu} -yuklama qarshiligidan elektr toki oqib o`tadi. Ikkinchi va uchinchi holatlarda elektron-kovak juftligi p -va n -sohalarda hosil bo`ladi. Bu sohalarda elektr maydon amalda mavjud emas, natijada tashuvchilarni o`tishga harakati asosan faqatgina diffuziya hisobiga bo`lishi mumkin. Agar p – n -o`tishgacha bo`lgan masofa diffuziya uzunligidan katta bo`lsa, unda aktiv sohaga borishga ulgurib etmay, hosil bo`lgan juftliklar rekombinatsiyalanib bo`ladi. Agar bu masofa kichik bo`lsa, katta ehtimollik bilan juftliklar aktiv sohaga etib boradiva kuchli elektr maydon ta`sirida bo`linadi va elektron (yoki kovak) tezda aktiv soha orqali boshqa sohaga qarab harakat qiladi. Bunda ham R_{yu} orqali oqib o`tuvchi elektr toki hosil bo`ladi. Agar har bir yutiladigan kvant elektron-kovak juftligini hosil qilsa, R_{yu} orqali oqib o`tuvchi I elektr tokining o`rtacha qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$(4.1) \quad I = q \cdot N = q \left(\frac{P}{h \cdot \nu} \right)$$

bu erda q – tashuvchi elektron zaryadi, $q = 1,6 \cdot 10^{-19}$ Kl; N - tashuvchilar soni; P - optik nurlanish quvvati, Vt; $h \cdot \nu$ - kvant energiyasi, Vt·s yoki kVt·soatda o`lchanadi.

Elektronlarni valent zonadan o`tkazuvchanlik zonaga o`tishi uchun yutilayotgan kvant energiyasi yetarlicha bo`lishi kerak, ya'ni $h \cdot \nu$ kvant energiyasi man etilgan soha kengligidan katta $h \cdot \nu \geq E_g$ bo`lishi kerak.

Yutiladigan yorug`lik kvantlarining hammasi ham elektr toki impulslarini hosil qilmaydi. Shuning uchun fotodiodlar, fotonlarni elektr tokiga aylanish samaradorligini xarakterlovchi η - kvant samaradorligi koeffitsienti bilan baxolanadi [4]. Kvant samaradorligini hisoblash formulasi:

$$(4.2) \quad \eta = 1,24 \frac{S}{\lambda}, \%$$

bu yerda S – sezgirlik, A/Vt; λ – optik signalning to`lqin uzunligi, nm.

Shu tarzda umumiy xolda R_{yu} orqali o`tayotgan elektr tokining o`rtacha qiymati quyidagi formuladan topiladi:

$$I = \eta q \left(\frac{P}{h\nu} \right) = S \cdot P. \quad (4.3)$$

Yuqori sifatli kremniy fotodiodlarini kvant samaradorligi 80 % yetishi mumkin. Lekin fotodiodlarni kvant samaradorligini 100% bo`lishiga erishib bo`lmaydi [6]. 7.2-rasmda esa kvant samaradorligini to`lqin uzunligiga bog`lanishi ko`rsatilgan [1].

Kvant samaradorligi bilan bir qatorda sezgirlik va vaqt doimiysi fotoqabulqilgichlarning asosiy xarakteristikalari hisoblanadi.

Fotodiod sezgirligi – S bu yorug`lik quvvatini elektr tokiga aylanishdagi to`liq foydali ish koeffitsientidir.

(FIK), ya'ni fototok I o`rtacha qiymatining optik quvvat P o`rtacha qiymatiga nisbatidir, A/Vt [4]:


$$S = I/P, \quad (4.4)$$

yoki (9.4) ni hisobga olganda

$$(4.5) \quad S = \eta \left(\frac{q}{h \cdot \nu} \right).$$

Bundan ko`rinib turibdiki, aktiv sohada yutiladigan yorug`lik oqimlari qancha ko`p bo`lsa, ya'ni η -kvant samaradorligi qancha yuqori bo`lsa, sezgirlik ham shuncha yuqori bo`ladi.

Vaqt doimiysi τ - foto qabul qilgichning tezkorligini xarakterlaydi va u ko`pgina parametrlarga: aktiv soha kengligiga, to`lqin uzunligiga, shuningdek tashuvchilar diffuziya oqibatida yoki elektr maydon ta'sirida harakat qilishiga bog`liq.



FD vaqt doimiysi τ

diffuziya vaqtiga va aktiv sohadan o`tish vaqtiga bog`liq. Shuning uchun p - va n -sohalarning, shuningdek aktiv sohaning o`lchamlari muhim hisoblanadi. Kelayotgan nurni aktiv sohada to`liq yutilishi, kvant samaradorligini oshirish maqsadida p -va n -sohalari ingichkaroq, aktiv soha esa kengroq qilib ishlab chiqariladi. Bu p - va n -sohalarga aralashmalarni ko`proq qo`shish, ya'ni yuqori legirlash, aktiv sohani esa kamroq legirlash yordamida amalga oshiriladi [1]. p - va n -sohalarga fotonlar tushganda diffuziya toki hosil bo`ladi, bu esa FD tezkorligini kamaytiradi. Lekin, aktiv soha o`lchamining kengligi ham, bu sohadan

tashuvchilarni o'tish vaqtini oshiradi. p – n turdagi diodlarda aktiv soha kengligi 20 mkm atrofida bo'ladi [6].

FD ni xarakterlovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu shaxsiy shovqinlar sathi hisoblanadi. Shovqinlar regeneratsiyalash punktlari orasidagi masofaga ta'sir qiladi. FDda doimiy oqib o'tadigan tok qiymati I_0 bilan shartlanadigan drob shovqinlari asosiy shovqin omili hisoblanadi. Drob shovqinlarining toki:

$$I_{dr.sh} = \sqrt{2qI_0 \cdot \Delta V} = \sqrt{2qI_0 B}, \quad (7.6) \quad (4.6)$$

bu yerda q – elektron zaryadi; I_0 – FDdan doimiy oqib o'tuvchi tok qiymati; Δv – chastota polosasi kengligi; B – uzatish tezligi.

Fotorezistor – yorug'lik ta'sirida o'zning qarshiligini o'zgartiruvchi ikkita chiqishga ega bo'lgan fotoelektr asbob hisoblanadi. Ularni optoparlarda, infraqizil diapazondagi optik qabul qilgichlarda, o'lchovchi sistemalarning dastlabki o'zgartiruvchilarida va shunga o'xshashlarda ishlatiladi. Fotorezistorga yorug'lik tushmagan paytida uning qarshiligi 106 – 107 Om gacha yetadi. Fotorezistorga tushgan yorug'lik impulsi unda uyg'ongan zaryad tashuvchilarni generatsiyalaydi, ular fotorezistor qarshiligini yashash vaqtiga mos holda kamaytiradi. Yorug'lik oqimiga proporsional holda tashqi zanjirda I_f tok qiymati ham ortadi. Fotorezistor bilan ketma-ket ulangan R_n nagruzka qarshiligida kuchlanishning oddiy fotopriyomnikning chiqish signali $\Delta U_{chiq} = I_f R_n$ ga aylanishi ro'y beradi.

Fotodiodlarning ba'zi turlari bilan tanishib chiqamiz. –

P - n fotodiodlar. p – n FD tezkorligi va parametrlarining barqarorligi bilan ajralib turadi. p - n FD tuzilishi (8.1-rasm) odatdagi p – n FD dan farq



qiladi. p – n FD da p+ va n+ -sohalarni aralashmalar bilan legirlanishi juda yuqori (+ yuqori legirlanishni bildiradi), bu +p va n+ sohalarni o'tkazuvchanligini

osHIRADI. i-sohaga esa aralashmalar kamroq qo`shiladi. Elektr maydonning maksimal qiymati i-sohada hosil bo`ladi. p – i – n tuzilishga teskari siljishli U0kuchlanish beriladi. Yorug`lik i –sohaga tushganda, unda elektron-kovak juftligi hosil bo`ladi. Elektr maydon ta'sirida ular tezda bo`linib va qarama-qarshi yo`nalishlarda o`zlarini elektrodlariga qarab harakatlanishadi. ElektrodLarni egallab, elektr toki hosil bo`ladi. p-i-n FD tuzilishi i –sohadan tashqarida nurlanish yutilishini keskin kamaytiradi (8.1-rasm).

Tunnel fotodiodlar. Tunnel fotodiodlarni odatiy FD dan asosiy farqi ko`chkisimon elektron ko`payishga asoslangan holda signallarni ichki kuchayishi hisoblanadi. Ko`chkisimon FD da $p^+ - I - n^+$ tuzilishga p –soha ($p^+ - i - p^+$) qo`shiladi (8.2-rasm). p-soha eng yuqori qarshilik, shuningdek eng yuqori elektr maydon kuchlanganligiga ega bo`lishi kerak. i -sohaga yorug`lik ta'sir qilganda elektron-kovak juftliklari hosil bo`ladi va ular bo`linib, elektrodLarga tomon harakat qiladi. Erkin elektronlar i -sohadan p -sohaga tushganda, p -sohadagi yuqori elektr maydon kuchlanganligi tufayli ular tezlashadi. p -sohani o`tkazuvchanlik zonasida tezlashgan va etarlicha energiyaga ega bo`lgan bu dastlabki elektronlarni atomlar bilan urilishidan, ya'ni zarb ionlanish tufayli yangi elektron-kovak juftliklari hosil bo`ladi. Natijada dastlabki elektron-kovak juftligi hosil qilgan elektr toki ko`chkisimon tarzda oshadi. Shuning uchun bu jarayon birlamchi fototokni ko`chkisimon ko`payishi yoki kuchayishi deyiladi. Fotonokni bunday oshishi M - ko`chkisimon ko`payish koeffitsienti bilan xarakterlanadi. U holda ko`chkisimon FD chiqishidagi tok qiymati (1) dan aniqlangan qiymatdan yuqori bo`ladi.

$$I_{FD} = M \frac{\eta q}{h\nu} P. \quad (1)$$

Ko`chkisimon FD larda M ga proporsional holda kuchayadigan, foydali signaldan farqli ravishda shovqin tezroq kuchayadi. Shuning uchun ko`chkisimon ko`payish koeffitsenti M qiymati optimal, odatda 30 dan 100 gacha


oraliqda tanlanadi. M oshgan sari, ko'chkisimon FD tezkorligi kamayadi. Kremniyli ko'chkisimon FD larda $M = 100$ da vaqt doimiysi taxminan uch martaga oshadi, ya'ni tezkorligi kamayadi, shunchaga o'tkazish 8.1-rasm. p-i-n turdagi fotodiod va elektr maydon kuchlanganligi turdagi. 8.2-rasm. Ko'chkisimon FD tuzilishi va elektr maydonning kuchlanganlik taqsimlanganligi maydonning taqsimlanishi. 10.8-rasm. Fotoelement. polosasi kamayadi. Bu kamchilikni i - sohani kuchsiz legirlangan, bir necha mikrometrli π -soha bilan almashtirish orqali bartaraf etish mumkin.

MAVZU 2. LAZERLI DIOD. FOTONLARNI QABUL QILISH.

Reja:

1. Yarimo'tkazgichli lazerlar
2. Lazer diodlar
3. Ko'pelementli fotoqabulqilgichlar
4. Optronlar va ularning klassifikatsiyasi
5. Tok bo'yicha uzatish koeffitsienti

Yorug'lik diodini tayyorlashda yorug'likni oson nurlantiradigan, GaAs , GaAlAs , InGaAsP , GaP , SiC kabi to'g'ri zonali yarimo'tkazgich




materiallardan foydalaniladi. Agar 3 – 4 turdagi elementlardan foydalanilsa, komponentlarning o'zaro nisbatiga mos holda taqiqlangan zona gE energiyasi o'zgaradi. Bu bilan turli to'lqin uzunliklarini nurlantiruvchi manbalarni yaratishga imkon tug'iladi. Komponentlarning o'zaro nisbatini o'zgarishidan sindirish

koeffitsienti ham o'zgaradi.

Uch elementli kimyoviy birikmalar quyidagicha tasvirlanishi mumkin: $1 - x x$ l A aGAs, $0 \leq x \leq 1$, bu yerda x – komponent qism (molyar massa).

p-n o'tishli turli materiallardan tuzilgan bunday yarimo'tkazgichlar geterotuzilish yoki geteroo'tish deyiladi.


YOD larning parametrlari: nurlanishning to'lqin uzunligi – λ , nurlanish spektrining kengligi – $\Delta\lambda$, nurlanish quvvati – P_{nur} , noasosiy zaryad tashuvchilarning yashash vaqti – τ va nurlanish quvvatining yo'nalganlik diagrammasi – Θ . YOD yo'nalganlik diagrammasi kengligi yuza tekisligida 120° ni tashkil etadi (5.3-rasm). YOD ning berishi mumkin bo'lgan maksimal quvvat P_S , sonli aperturadan aniqlanadi va quyidagi formuladan xisoblanadi: $20=SP \text{ PAN}()$, (5.3) bu yerda P_0 - manba uchun to'liq nurlanish quvvati.



YODdan optik tolaga kiritiladigan quvvat, uning sonli aperturasi kvadratiga proporsional. NA qiymati 0,15...0,24 oraliqda tanlanadi. Agar $NA=0,2$ ga teng bo'lsa, unda tolaga kiritish samaradorligi 4% dan oshmaydi, bu quvvatni 14 dBga yo'qotilishiga mos keladi. Shu tariqa YODdan foydalanish nurlanishni tolaga samarali kiritish muammosini yuzaga keltiradi. Bu muammo nurlanishni tolaga kiritishni yuqori koeffitsientini ta'minlovchi


maxsus yorug`lik diodlarini qayta ishlash, shuningdek mikrolinzalarni qo`llash yordamida hal qilinadi. YODni asosiy ikki turi mavjud: 1. Sirtidan nurlantiruvchi YOD, 2. Yonidan nurlantiruvchi YOD. Optik aloqa tizimlarida qo`llaniladigan GaAs asosidagi sirtidan nurlantiruvchi YODning odatiy tuzilishi ko`rsatilgan 5.4-rasmda ko`rsatilgan. Optik tola bilan fizik moslashuv va yorug`likni kuchli yutilishini oldini olish uchun GaAs li soxaga chuqurcha o`yiladi. Nurlanuvchi sirt yuzasi nisbatan kichik o`lchamli ($d \approx 50$ mkm) bo`lib, optik tola diametriga mos ravishda tanlanadi. Nurni optik tolaga kiritishdagi yo`qotishlar moslashtiruvchi qurilma qo`llanilmagan xolda tolni NA sonli aperturasiga bog`liq bo`ladi va 14...20 dB ni tashkil etadi. Moslashtiruvchi qurilmalarni qo`llash bu yo`qotishlarni kamaytirishga imkon beradi.

Yonidan nurlantiruvchi YOD tuzilishi 5.5-rasmda ko`rsatilgan. Yonidan nurlantiruvchi (yonidan nurlantiruvchi) YOD larda ikkitalik geterotuzilish ishlatiladi. 5.6a- va b- rasmlarda mos ravishda bir tomonlama chegarali geterotuzilish BGT va ikki tomonlama chegarali geterotuzilish IGT ko`rsatilgan.



BGTli YOD larda to`g`ri siljitish ta`sirida elektronlar p – n o`tish orqali injeksiyalanadi, so`ng GpLAAgsA1 o`tishni potentsial bareri bilan tutib qolinadi. Nurlanish rekombinatsiyasi ko`pincha d qalinlikli aktiv soxada ro`y beradi.

IGT ancha yuqori xususiyatlarga ega. Bunday tuzilishda aktiv nurlanish



rekombinatsiyasi (5.6-rasm) o`ng va chapdagi potentsial barerlar evaziga p -sohada (GaAs) kuzatiladi va nurlanishni amalda d soha doirasida yuzaga kelishiga yordam beradi.

Yonidan nurlantiruvchi BGT va IGTlarni ishlatish nurlanishni yuzada tarqalishini kamaytiradi. Normal p-n o'tishda taxminan 30° gacha kamaytiradi. Sirtidan nurlantiruvchi YOD larga nisbatan yonidan nurlantiruvchi YOD larni nurlanish quvvati 25 marta kichik bo'ladi. Biroq, yonidan nurlantiruvchi YOD da yo'nalganlik diagrammasining torligi evaziga nurni optik tolaga kiritishda yo'qotishlar kam bo'ladi va NA ga bog'liq ravishda 10...16 dB ni tashkil etadi. YOD larda nurlanish quvvati 0,01...0,1 mVt ga teng. Yorug'lik diodi quyidagi asosiy xarakteristikalar bilan tafsivlanadi: 1) volt – amper xarakteristikasi; 2) vatt – amper xarakteristikasi; 3) spektral xarakteristikasi. 5.7-rasmda YOD



ning nurlanishining spektral xarakteristikasi berilgan. Sirtidan nurlantiruvchi YOD da $\lambda=0,85$ mkm da nurlanish spektri kengligi $\Delta\lambda=40$ nm ga, nurlantiruvchi kesimli YOD da $\lambda=1,3$ mkm da nurlanish spektri kengligi $\Delta\lambda=90$ nm ga teng.

YOD ni eng muhim parametrlari bu uning ishonchliligi va xizmat qilish muddatlaridir. Yorug'lik diodlaridan uzoq vaqt foydalanish natijasida nurlanish quvvati kamayadi. Harorat 10-20° S ga oshsa, xizmat muddati ikki barobar qisqaradi. Aloqa tizimlarida foydalanish uchun xizmat muddati er aloqa liniyalari uchun 105 soatni va suv osti aloqa liniyalari uchun 106 soatni tashkil etishi kerak.

YOD lar uchta tiniqlik oynalari 850, 1310 va 1550 nm da ishlatish uchun ishlab chiqariladi. Lekin, ular ko'proq 850 va 1310 nm da qo'llaniladi. YOD larni ishlab chiqarish lazer diodlariga qaraganda arzon.

Tuzilishininig taqqosiy soddaligi, yuqori ishonchliligi va nurlanish tavsiflarining temperaturaga kuchsiz bog'liqligi, nurlanish spektrining kengligi (60 nm gacha), nurlantiruvchi chastota oralig'ining torligi (100-200 MGts) va tezkor emasligi sababli YOD lar asosan past tezlikli tizimlarda axborotlarni yaqin masofaga uzatishda qo'llaniladi.

Nurdiodlarda nurlanuvchi o'tishlar sonining va nurlanmaydigan o'tishlar soniga nisbati ichiki kvant chiqish η_k ni aniqlaydi va fotonlar sonining


yarimo`tkazgich orqali o`tuvchi elektronlar soniga nisbatiga teng. Lyuminesentsiyaning ba'zi turlari uchun ichki kvant chiqish birga yaqinlashadi, ayniqsa etarlicha past temperaturalarda. Nurlanish manbasidan barcha fotonlar chiqmaganligi uchun u tashqi kvant chiqish $\eta_{ke} = \eta_k K_0$ bilan xarakterlanadi, bu yerda K_0 koeffitsient yorug`likning qaytishi va yutilishi bilan bog`liq bo`lgan yo`qotishlarni e`tiborga oladi. Ichki kvant chiqish uchta tashkil etuvchi bilan aniqlanadi: $\eta_{\gamma k} N P$, bu yerda γ – yarimo`tkazichning lyuminesentsiyalovchi sohasida kechuvchi rekombinatsiyalar ulushi, P – nurlanuvchi rekombinatsiyalar ulushi, N – bitta elektron keltirib chiqargan rekombinatsiyalar soni. Lyuminesentsiyaning tashqi energetik chiqishi (FIK) $eV_{\eta} = hv - V$ formula orqali topiladi, bu yerda hv – fotonlar energiyasi (J), $eV - V$ potentsiallar farqini o`tgan elektronlar energiyasi (J). O`xshash parametr – yorug`lik berilishi ko`rinuvchi diapazonda nurlanish manbalarining effektivligini xarakterlaydi $\eta = \Phi / LL W$, bu yerda ΦL -nurlanishning yorug`lik oqimi (lm), W - manba iste`mol qilayotgan quvvat (Vt). YOD larning tashqi kvant chiqishini oshirish uchun ular toza moddalarda keskin p – n o`tishlar asosida ishlovchi strukturalarda tayyorlanishlari kerak. Buning uchun hozirgi vaqtda yarimo`tkazgichlarni o`stirishning turli xil texnologiyalar qo`llanilmoqda.

Yarim o`tkazgichli lazerlar

Lazer diodlar (LD) odatda uzoq masofali va yuqori tezlikli (155 Mbit/s dan yuqori) optik tizimlarida qo`llaniladi.

LDlarning tavsiflari. LDlar nurlanish quvvati va uni tashqi injeksiya tokiga bog`liqligi, nurlanishni yo`nalganlik diagrammasi θ va nurlanish spektri, xizmat muddati bilan tavsiflanadi. LD YOD ga qaraganda tashqi injeksiya tokini katta qiymatlarida ishlaydi. Tashqi injeksiya toki I_u oshib, chegaraviy Ich qiymatga yetgach, generatsiya, qachonki tuzilishdagi yo`qotishlar kuchayishlarga teng bo`lganda yoki lazer effekti yuzaga keladi, ya`ni

indutsiyalangan (majburiy) nurlanish hosil bo`ladi. Nurlanish quvvatini tashqi injeksiya tokiga bog`liqligini LD ni vatt-amper xarakteristikasidan ko`rish mumkin. 6.1-rasmda LD va YOD larni vatt-amper xarakteristikalari ko`rsatilgan. Kichik tok qiymatlarida LDda kuchsiz spontan nurlanish yuzaga keladi, u samarasiz yorug`lik diodi sifatida ishlaydi. Yuqorida aytib o`tilgandek, tok qiymati chegaraviy tok I_{ch} qiymatidan oshganda nurlanish quvvati P_{nur} keskin oshib, kogerent majburiy nurlanish hosil bo`ladi. LDning nurlanish quvvati 1 – 100 mVt ni tashkil etadi.




Lazer chegaralangan pik quvvatli nurlanish manbai hisoblanadi. Bu damlash tokining katta qiymatlarida quvvatning kamayib borishi bilan bog`liq.

Atrof muhit temperaturasi o`zgarsa, vatt-amper xarakteristikasi suriladi (6.2 – rasm). Bu chegaraviy tok va chiqish quvvati qiymatlarining o`zgarishiga olib keladi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun kompensatsiyalashning elektr sxemalari, shuningdek mikrosovutgichning ishini boshqaruvchi, termokompensatsiyalash sxemalaridan foydalaniladi. 6.3 – rasmda LD optik nurlanishining yo`nalganlik diagrammasi ko`rsatilgan. Rasmdan ko`rinib turibdiki, lazer nurlanishining diagrammasi nosimmetrik. Quvvatning yarim sathida o`lchanganda uning kengligi o`tishga parallel yuzada 20° dan kichik va perpendikular yuzada 40° dan katta (6.3,a-rasm). 6.3,b-rasmda o`zaro perpendikular yo`nalishlarda nurlanish quvvatining burchakka bog`liqligi ko`rsatilgan. Yo`nalganlik diagrammasi ellips konus ko`rinishiga ega.

Generatsiyalanadigan nurlanishning yetarli katta yoyilganligi, uni kichik sonli aperatureli optik tolaga samarali kiritishga to`sqinlik qiladi. Buning uchun maxsus moslashtiruvchi qurilmalarni qo`llash talab etiladi. Magistral aloqa liniyalari kabellari bir moddali tolalardan iborat bo`lgani uchun ham LDdan foydalanish kerak. Chunki YOD ga qaraganda LDning nurlanishini yo`nalganlik diagrammasi tor. Bu nurlanishni tolaga kiritishni osonlashtiradi.

LDning bir necha turlari mavjud: a) ko`p modali yoki Fabri-Pero rezonatorli lazerlar; b) bir modali lazerlar; v) bir modali taqsimlangan teskari aloqali (DFB) lazerlar; g) taqsimlangan Bregg aks etishli lazerlar; d) tashqi rezonatorli lazerlar.



Tashqi rezonatorli lazerlar. Tashqi rezonatorli lazerlarda bir yoki ikkala ko`ndalang yoni aks ettirishni kamaytiruvchi, maxsus qatlam bilan qoplanadi va mos ravishda yarim o`tkazgich aktiv sohasini atrofida bitta yoki ikkita

ko`zgu qo`yiladi. 6.8-rasmda bitta tashqi rezonatorli lazer ko`rsatilgan.

Aks etishni kamaytiruvchi qoplama aks etish koeffitsientini taxminan to`rt tartibga kamaytiradi, aktiv qatlamni boshqa ko`ndalang yoni esa 30% gacha yorug`lik oqimini aks ettiradi. Aks ettiruvchi difraktsion panjara ko`zgu va difraktsion panjaradan tashkil topgan.


Ko`zgu difraktsion panjara vazifasini to`ldiradi. Ko`zgu va aktiv element o`rtasida teskari aloqani yaxshilash uchun linza o`rnatiladi. Aks ettiruvchi difraktsion panjaragacha bo`lgan masofani oshirib yoki kamaytirib, shuningdek panjarani burish hisobiga panjara qadamini o`zgartirish orqali nurlanish to`lqin uzunligini bir tekisda o`zgartirish mumkin.

Shuning uchun bunday lazerlar sozlanuvchan lazerlar deyiladi. Bu lazerlarda to`lqin uzunligini 30 nm oraliqqacha o`zgartirish mumkin. Tashqi rezonatorli lazerlar to`lqin uzunligi bo`yicha zichlashtirish apparaturalarini va TOA uchun o`lchov qurilmalarini yaratishda juda kerakli hisoblanadi [1].

Ko`p elementli fotoqabulqilgichlar. Hozirgi vaqtda tashqi va ichki fotoeffektga asoslangan yorug`lik signalini elektr signaliga aylantiruvchi juda ko`p qabul qilgichlar ishlab chiqarilyapti; bularning umumiy nomi fotoelementlar deb ataladi. Ular texnikada va ilmiy tekshirishlarda juda keng qo`llaniladi. Hozirgi zamonda o`tkaziladigan turli-tuman ob`ektiv optik o`lchashlarni biror turdagi fotoelementlardan foydalanmay o`tkazib bo`lmaydi. Hozirgi zamon

fotometriyasi, spektrometriyasi va spektrning keng sohasidagi spektrofotometriyasi, moddaning spektral analizini, yorug'likning kombinatsion sochilishida kuzatiladigan zaif yorug'lik oqimlarini ob'ektiv o'lchashlarni, astrofizika, biologiya va boshqalarni fotoelementlarni qo'llamasdan tasavvur qilish qiyin; infraqizil spektrlar ko'pincha spektrning uzun to'lqinli sohasida ishlaydigan maxsus fotoelementlar yordamida qayt qilinadi. Fotoelementlar texnikada juda keng qo'llaniladi: ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va nazorat qilish, tasvir uzatish va televideniadan tortib lazerlarga asoslangan optik aloqagacha bo'lgan turli aloqa sistemalari hamda kosmik texnika fotoelementlar qo'llaniladigan sohalarning bir bo'lagi bo'ladi xolos, bu sohalarda fotoelementlar hozirgi zamon sanoati va aloqasining turli-tuman texnik masalalarini hal qilib beradi.

Tashqi fotoeffektga asoslangan fotoelementlar. Tashqi fotoeffekt asosida



ishlaydigan birinchi vakuum fotoelementi 1889-yilda yasalgan. Tashqi fotoeffekt hodisasi vakuumli fotoelementlarda ishlatiladi (10.8-rasm). Vakuum hosil qilingan shisha balon ichki devoriga surkalgan metall qatlami vakuum fotoelementning K katodi bo'lib xizmat qiladi. Anod A metall halqa tarzida yasalgan bo'lib, balonning markaziy qismiga joylashtirilgan. Katodni yoritganda fotoelement zanjirda elektr toki paydo bo'ladi. Bu tokning kuchi yorug'lik oqimi kattaligiga proporsionaldir.


Fotoelementlar yordamida hal qilinadigan masalalar juda turli-tuman bo'lgani uchun har xil texnik xarakteristikalariga ega bo'lgan fotoelementlarning juda ko'p turlari yaratildi. Har bir masalani hal qilishda fotoelementning optimal turini tanlash uchun bunday xarakteristikalardan xabardor bo'lish kerak. Tashqi fotoeffektga asoslangan fotoelementlarning (vakuum fotoelementlarining) quyidagi xarakteristikalarini bilish zarur: 1) spektrning qaysi sohasida ishlashi; 2) spektral sezgirligining nisbiy xarakteristikasi (bu xarakteristika monoxromatik yorug'lik bilan yoritilgan holdagi

spektral sezgirlikning xarakteristikaning maksimumdagi sezgirlikka bo'lgan o'lchamsiz nisbatining tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liqligidan iborat); 3) umumiy sezgirlik (bu sezgirlik fotoelementni standart yorug'lik manbai bilan yoritganda aniqlanadi); 4) beradigan kvantlari miqdori (chiqayotgan fotoelektronlar sonining fotokatodga tushayotgan fotonlar soniga bo'lgan nisbatning protsent hisobidagi qiymati); 5) inertsionlik (vakuum fotoelementlarida bu xarakteristika elektronlarning fotokatoddan anodga uchib borishiga ketadigan vaqt bilan aniqlanadi). Fotoelementning qorong'ilik toki ham muhim parametr bo'lib, u odatda fotokatodning xona temperaturasidagi termoemissiyasi bilan sirqish toki orqali aniqlanadi.

Fotokatodning materiali va kolbaning materialiga qarab fotoelementlarni 0,2 – 1,1 mkm diapazonida ishlatish mumkin. Ularning 1 lyumen yorug'lik oqimiga to'g'ri kelgan umumiy (integral) sezgirliги 20 – 100 mkA bo'ladi, termoemissiyasi esa 10-11 – 10-16 A/sm² ichida o'zgaradi. Vakuum fotoelementlarining eng muhim afzalligi ularning juda doimiy bo'lishi va yorug'lik oqimi bilan fototok orasidagi bog'lanishining chiziqli ekanligidir. SHuning uchun ular spektrning ko'rinuvchan va ultrabinafsha sohasida ob'ektiv fotometriya, spektrometriya, spektrofotometriya va spektral analizda uzoq vaqt ko'p qo'llanib kelindi. Vakuum fotoelementlarining yorug'lik o'lchashlarida qo'llanishdagi eng asosiy kamchiligi ular ishlab chiqaradigan elektr signallarning zaifligidir. Bu kamchilik fotoelektron kuchaytirgichlarda (FEK larda) butunlay bartaraf qilingan bo'lib, bu asboblarni rivojlangan fotoelementlar deb hisoblash mumkin.

Fotoelektron kuchaytirgichlar. Dastlab FEK lar 1934-yilda yasalgan

edi. FEK ning ishlash printsipini 10.9-rasmdan ko'rib chiqishimiz mumkin. FK fotokatoddan chiqqan (emissiyalangan) fotoelektronlar elektr maydoni ta'sirida tezlashadi va birinchi oraliq E_1 elektrodga tushadi. Tushayotgan fotoelektronlar ikkilamchi elektronlarning



10.9-rasm.

chiqishiga sababchi bo'ladi; ma'lum sharoitlarda ikkilamchi emissiya fotoelektronlarning dastlabki oqimidan bir necha marta katta bo'lishi mumkin. Elektrodning konfiguratsiyasi shundayki, fotoelektronlarning ko'pchiligi E_1 elektrodga, ikkilamchi elektronlarning ko'pchiligi esa navbatdagi E_2 elektrodga tushadi, bu elektrodda ko'payish jarayoni qaytariladi va hokazo. Elektrodlar (dinodlar) 10 – 15 ta bo'ladi; bularning eng oxirgisidan chiqayotgan ikkilamchi elektronlar anodga yig'iladi. Bunday sistemalarning umumiy kuchaytirish koeffitsienti 107 – 108 ga, umumiy (integral) sezgirligi lyumenga to'g'ri kelgan minglab amperga etadi. Bundan FEK lar yordamida juda katta toklar olish mumkin degan xulosa chiqarmay, balki juda zaif yorug'lik oqimlarini o'lchash mumkin degan xulosa chiqarish kerak.

Ravshanki, vakuum fozlementlaridagidek texnik xarakteristikalar, shuningdek, kuchaytirish koeffitsienti va uning ta'minlovchi kuchlanishga bog'liqligi FEK ni to'liq ta'riflab beradi. Hozirgi vaqtda hamma erda vakuum fotoelementlarining o'rniga fotoelektron kuchaytirgichlar qo'llanilmokda. FEK larning kamchiliklari sifatida yuqori voltli va stabillashtirilgan manbaadan foydalanish zarurligi, sezgirlik stabilligining bir oz yomon ekanligi va shovqinlar ko'p ekanligini ko'rsatish mumkin. Lekin fotokatodlar sovitilsa va chiqish toki emas, balki impulslar soni (har bir impuls bitta fotoelektronga mos keladi) qayt qilinsa, yuqorida aytib o'tilgan kamchiliklarning salbiy ta'siri ancha kamaytirilgan bo'ladi.


Tashki fotoeffektga asoslangan yorug'lik qabul qilgichlarning eng afzal tomoni fototokning yuklama qarshilik (nagruzka) o'zgarganda o'zgarmasligidir. Demak, fototokning qiymati qancha kichik bo'lmasin qarshiligi katta bo'lgan nagruzka qo'llash va natijada qarshilikda qayt qilish va kuchaytirish uchun etarli kattalikdagi kuchlanish tushishiga ega bo'lish mumkin. Ikkinchi tomondan, qarshilik o'rniga sig'im ulash va bu sig'imdagi kuchlanishni o'lchab, ma'lum vaqt davomida tushayotgan o'rtacha yorug'lik oqimiga proporsional kattalikni aniqlash mumkin. Bu esa o'z navbatida yorug'likning

stabilashmagan manbaidan tushayotgan yorug`lik oqimini o`lchash, ya`ni spektroanalitik o`lchashlarga hos bo`lgan hol uchun juda muximdir.

Optronlar va ularning klassifikatsiyasi. Tok bo`yicha uzatish koefitsienti. Optronlar—o`zaro bog`langan nurlangich–qabul qilgich jufti va unga mos keluvchi sxemotexnika amerikalik Lebner (Loebner) tomonidan 1955-yilda taklif qilingan. Dastlabki potronlar na`munalari 1961-yilda yaratilgan, sanoatda esa 1965-yilda chiqarila boshlandi.

Optronlarda nurlanish manbalari bo`lib cho`g`lanma lampalar, neon lampalar, elektrolyuminescent nurlantirgichlar va, ko`p hollarda, yorug`lik diodlari xizmat qiladilar. Qabul qilgichlar sifatida esa fotoarshiliklar, fotodiodlar, fotoelementlar, fototranzistorlar ishlatiladilar. Optik kanal muhiti sifatida esa – havo, shisha, plastmassa yoki bo`qa shaffof muhitlardan foydalaniladi.

Elementar optron bitta nurlantirgich va bitta qabul qilgichdan tashkil topadi. SHuning uchun ular **optojuft (optopara)** deyiladi. Integral mikrosxemaga birlashgan bitta yoki bir necha moslanuvchi va kuchaytiruvchi qurilmalarga ega bo`lgan ancha murakkab optronlar **optoelektron integral mikrosxemalar** deyiladi.



Optronlarning alohida xususiyati energiyaning ikki marta o`zgartirilishi hisoblanadi, odatda elektr kirish va chiqishlarga ega bo`lib, elektr energiya optik energiyaga va aksincha. Elektr kirish va chiqishlarga ega bo`lgan optron sxemasi 4.1-rasmda berilgan.

Agar manba va qabul qilgichlar elektr jihatdan birlashmagan bo'lsa, u holda galvanik kirish va chiqish ishlatiladi. Elektr va (yoki) optik teskari aloqadan foydalanish, optik va elektr signallarni, xotira qurilmalarini va boshqalarni generatsiyalash va kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Optronlarning **afzalliklarini** quyidagilar hisoblanadi: halaqitlardan himoyalashining yuqoriligi, signallar uzatilishining bir tomonga yo'nalganligi, chastotaviy o'tkazish polosasining kengligi (impulsli va doimiy signallar uzatilish imkoniyatligining mavjudligi), mikroelektronikaning boshqa qurilmalari bilan mos kelishi.

Kamchiliklari: energiyaning ikki marta o'zgartirilishi bilan bog'liq bo'lgan foydali ish koeffitsientining kichikligi, temperatura o'zgarishiga parametrlarning sezgirliigi, xususiy shovqinlarning yuqori darajadaliigi, gibridd texnologiya.

Nurlanish manbaalari sifatida GaAs , GaAlAs , GaAsP va boshqa yarimo'tkazgich birikmalar asosida tayyorlash yorug'lik diodlari ishlatiladi, ular infraqizil diapazonda ishlaydi.

Optik kanal materiallari bo'lib, 1) polimer optik elimlar, laklar, yopishqoq moddalar, shishalarning ba'zi materiallari; 2) havo kanallari; 3) optik tolali svetovodlar ishlatiladi.

Foto qabul qilgichlar sifatida esa Si , fotorezistorlar esa CdS , CdSe va boshqa xalkogenidlar asosida tayyorlanadi.

Hozirda esa rezistorli, diodli, tranzistorli, tiristorli optronlar ishlab chiqarilmoqda.

Nazorat savollari


